2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 2 (1063), 2024-yil 4-yanvar, payshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

# 2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO‘LLAB-QUVVATLASH YILI

## MUDOFAA QURILISHI VA QUROLLI KUCHLARNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI KO‘RIB CHIQILDI

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2-yanvar kuni mudofaa qurilishi va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilish bo‘lib o‘tdi.**

Yig‘ilishda qo‘shinlarning jangovar shayligi va jangovar qobiliyatini yanada oshirish, ularni zamonaviy qurol-yarog‘ va harbiy texnika bilan ta’minlash, mavjud qurol-yarog‘ namunalarini modernizatsiya qilish, shuningdek, harbiy xizmatchilar, ularning oila a’zolari va Qurolli Kuchlar faxriylarini ijtimoiy himoya qilish masalalari muhokama qilindi.

Qo‘shinlarning jangovar va ma’naviy-ma’rifiy tayyorgarligi, boshqaruv organlari, birlashmalar, qo‘shilma va qismlar, oliy harbiy ta’lim muassasalarining faoliyat samaradorligini oshirish bo‘yicha bajarilgan ishlar yuzasidan mudofaa vazirining hisoboti tinglandi.

2016-yildan boshlab milliy armiyamizni isloh qilish, Qurolli Kuchlarning tashkiliy tuzilmasini va dislokatsiya tizimini takomillashtirish, qo‘shinlarni zamonaviy qurol-yarog‘ va texnika namunalari bilan jihozlash, harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarligi va shayligi, kasbiy mahoratini oshirishga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda.

O‘tgan davrda bo‘linmalarning texnik va zaxira ta’minoti tizimi tubdan qayta ko‘rib chiqildi, autsorsing xizmatlari va harbiy klasterlar tizimi joriy qilindi. Mudofaa sanoati majmuasi korxonalari faol rivojlantirilmoqda, ayrim turdagi qurol-yarog‘ va texnika turlarini ishlab chiqarish va modernizatsiya qilishni mahalliylashtirish boshlandi.

Hisobot davrida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tayyorlashga alohida e’tibor qaratildi. Xususan, mahallalarda 24 mingdan ortiq tadbir o‘tkazildi, “Jasorat maktablari”dagi o‘quv yig‘inlariga 5 ming nafardan ziyod yoshlar jalb qilindi.

Harbiy shaharchalarda “Temir daftar”ga kirgan oilalarning farzandlari uchun fan, sport va san’at turlari bo‘yicha to‘garak va seksiyalar tashkil etish, ularni brigada komandirlari va harbiy okrug qo‘mondonlariga biriktirish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi.

Jami 580 dan ortiq tezkor-jangovar tayyorgarlik tadbirlari o‘tkazildi, ularda Qurolli Kuchlarning 35 mingdan ziyod harbiy xizmatchilari ishtirok etdi.

Harbiy xizmatchilar va ular oila a’zolarining ijtimoiy himoyasi kuchaytirildi.

Amalga oshirilgan ishlar natijasida qo‘shinlarning jangovar tayyorgarlik samaradorligi, harbiy xizmatchilarning professionalligi, jangovar ruhi va psixologik shayligi sezilarli darajada oshdi.

Harbiy oliy ta’lim muassasalari faoliyatida harbiy kadrlarni ilg‘or texnologiyalar asosida tayyorlash bo‘yicha yangi tizim joriy qilindi.

Bundan tashqari, harbiy sohani raqamlashtirishga alohida e’tibor qaratildi. Qo‘shinlarni boshqarishning zamonaviy avtomatlashtirilgan tizimlari bosqichma-bosqich joriy etilmoqda, aloqa tizimlari takomillashtirilmoqda.

Yig‘ilishda milliy armiyani zamonaviy qurol-aslaha va harbiy-texnik mulk bilan ta’minlash, harbiy sanoat majmuini takomillashtirish ishlarini davom ettirish muhimligi ko‘rsatib o‘tildi.

14-yanvar kuni nishonlanadigan Qurolli Kuchlar tashkil etilganining 32 yilligi va Vatan himoyachilari kuniga bag‘ishlangan bayram tadbirlarini yuksak saviyada tayyorlash va o‘tkazish masalalari ham ko‘rib chiqildi.

Yig‘ilish yakunida davlatimiz rahbari tomonidan Qurolli Kuchlar faoliyatini yanada takomillashtirish va mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini yuksaltirish bo‘yicha qator topshiriqlar berildi.

**O‘zA**

## INVESTITSIYA SIYOSATINI AMALGA OSHIRISH VA “YASHIL” ENERGETIKANI RIVOJLANTIRISH MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

**Prezident Shavkat Mirziyoyev 2-yanvar kuni investitsiya siyosatini amalga oshirish hamda energetika tizimida qayta tiklanuvchi energiya quvvatlari ulushini ko‘paytirish bo‘yicha 2023-yilda qilingan ishlar va 2024-yilga mo‘ljallangan rejalar taqdimoti bilan tanishdi.**

O‘tgan yil yakuni bilan jami 22 milliard dollardan ziyod xorijiy investitsiyalar o‘zlashtirilgani, bu avvalgi yilga nisbatan 1,8 barobar ko‘pligi ta’kidlandi.

Amalga oshirilgan ishlar tahlil qilinar ekan, joriy yilda xorijiy investitsiyalar hajmini yanada ko‘paytirish zarurligi qayd etildi. Bunda asosiy e’tiborni elektrotexnika, mashinasozlik, qurilish materiallari, farmatsevtika, to‘qimachilik va charm sanoati tarmoqlariga qaratish topshirildi.

Yirik investorlar bilan manzilli ishlash, investitsiyalarni jalb qilishda iqtisodiy diplomatiyani va chet eldagi diplomatik vakolatxonalar ishtirokini kuchaytirish muhimligi alohida qayd etildi.

Yangi investitsiya loyihalarni amalga oshirishda hududlardagi maxsus zonalardan hamda sanoat kooperatsiyasi imkoniyatlaridan keng foydalanish orqali qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish zarurligi ko‘rsatib o‘tildi. Tarmoq va hududlar rahbarlari investitsiya masalalarini hal etishda sanoat tarmoqlari bilan yaqindan ishlashi, asosiy e’tiborni hududlarda iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, yangi ish o‘rinlarini ko‘paytirishga qaratishi shartligi qayd etildi.

Xalqaro moliya institutlari mablag‘laridan samarali foydalanish va ularni o‘z vaqtida o‘zlashtirish, ushbu mablag‘larni ustuvor ravishda ijtimoiy, infratuzilma hamda suv xo‘jaligi loyihalariga yo‘naltirish zarurligi ta’kidlandi.

Shuningdek, joriy yilda grant mablag‘larini jalb qilishni faollashtirib, ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, sog‘liqni saqlash, oliy ta’lim, fan va innovatsiya sohalarida xorijiy va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish vazifalari belgilab berildi.

Yig‘ilishda “yashil” energetikani rivojlantirish masalalari ham ko‘rib chiqildi.

Bugungi kunda yurtimizda quyosh, shamol va gibrid turdagi elektr stansiyalarni davlat-xususiy sheriklik asosida barpo etish bo‘yicha umumiy quvvati 6,3 gigavatt bo‘lgan 28 ta loyiha doirasida ish olib borilmoqda. Shundan 2023-yilda xorijiy investorlar bilan birgalikda umumiy quvvati 2,6 gigavattlik 7 ta loyiha doirasida dastlabki quvvatlar ishga tushirildi.

Xususan, o‘tgan yil 27-dekabr kuni davlatimiz rahbari ishtirokida o‘tgan marosimda Samarqand, Jizzax, Surxondaryo, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida beshta quyosh fotoelektr stansiyasi, Navoiy viloyatida shamol elektr stansiyasi quvvatlari tarmoqqa ulandi.

Bundan tashqari, ayni paytda Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari, Xitoy, Fransiya va Shveysariya kabi mamlakatlarning kompaniyalari bilan hamkorlikda “yashil” stansiyalar va energiya saqlash tizimlarini barpo etish bo‘yicha 12 loyiha ustida ish olib borilmoqda.

Yig‘ilishda o‘tgan yilda boshlangan loyihalarni 2024-yilda to‘liq yakuniga yetkazish vazifalari, kelgusi yillarda “yashil” energiya ishlab chiqarish bo‘yicha yangi quvvatlarni yaratish rejalari muhokama qilindi.

2024-yilda quyosh elektr stansiyalarining umumiy quvvatini 2,6 gigavattga, shamol elektr stansiyalari quvvatini 900 megavattga yetkazish va 400 megavattlik energiya saqlash qurilmalarini ishga tushirish rejalashtirilgan.

Davlatimiz rahbari elektr energetika tizimining barqaror ishlashini ta’minlash maqsadida o‘zgaruvchan ishlab chiqarish quvvatlari qo‘shilishini inobatga olgan holda tarmoqlarni rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish vazifasini qo‘ydi. Bunda mavjud tarmoqlarni modernizatsiya qilish, yangi podstansiyalar, uzatish tarmoqlarini qurish, zamonaviy avtomatlashtirilgan himoya tizimlarini, raqamlashtirilgan boshqaruv tizimlarini (SCADA/EMS) joriy etish, zaxira quvvatlari va energiya saqlovchi tizimlarning tarmoqdagi ulushini ko‘paytirish chora-tadbirlarini belgilash zarurligi ko‘rsatib o‘tildi.

Yig‘ilishda energetika tizimida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni ko‘paytirish masalasiga to‘xtalib o‘tildi.

Energetika tarmog‘iga investitsiya kiritayotgan asosiy xorijiy hamkorlar bilan manzilli ishlash va investitsiyaviy sheriklikni yanada kengaytirish maqsadida Energetika vazirligining bu boradagi faoliyatini takomillashtirish topshirildi.

Xalqaro tajriba asosida qishloq xo‘jaligi yerlarida mahsulot yetishtiruvchilar tomonidan o‘z ehtiyojlari uchun quyosh panellarini o‘rnatish va elektr energiyasini ishlab chiqarish — agrovoltaika amaliyotini joriy etish imkoniyatini o‘rganish va ushbu yo‘nalishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha aniq takliflar kiritishga ko‘rsatma berildi.

**O‘zA**

### Yangi O‘zbekiston ruhi

## “OL BAYROG‘INGNI, QALBING UYG‘ONSIN!”



### Dunyoga jadidlar qaytmoqda

Ma’naviyat va ma’rifatning suv va havodek zarurligini Prezidentimiz ilk bora o‘z vazifasiga kirishgan yillardayoq mamlakatning asosiy tayanchi, yuksalish asosi sifatida maydonga olib chiqdi.

XX asrda jadid ma’rifatparvarlari millat dardida qalblarda yondirgan shamlar mustabid tuzum tomonidan ayovsiz o‘chirildi. To‘qsoninchi yillarda jadidlarga bir murojaat qildik, ammo keyin ulardan yiroqlashdik. Bu yiroqlashish millatga qanchalar qimmatga tushganini hozir ich-ichdan his qilib turibmiz. Aslida, jadidlardan yiroqlashish milliy o‘zlikdan, yuksak maqsadlardan, milliy ma’rifat asosidagi milliy taraqqiyotdan, milliy birlikdan yiroqlashish ekanligini ko‘pam anglamadik.

Prezident raisligida bo‘lib o‘tgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashinining kengaytirilgan tarixiy yig‘ilishi go‘yoki ziyo taratib, haqiqatni ko‘rsatgandek bo‘ldi.

Nazarimda, bu yig‘ilishda aytilgan har bir so‘z jadidlar orzusi, jadidlar so‘zi, nafasidek yangradi, jadidlar yana qayta dunyoga kelgandek bo‘ldi. Chunki bugun mamlakat o‘z oldiga qo‘ygan eng yuksak maqsadlar jadidlar yaratmoqchi bo‘lgan, bugun bunyod bo‘layotgan yangi uyg‘onish davri orzusidir.

*Davomi 3-betda*

### Hayotiy tashabbuslar qanotida

## AZIZ ASRIMIZNING AZIZ ODAMLARI

### mahalladagi yangilanishlarga bosh qo‘shmoqda

**Sanobar opaga ulug‘ shoir — Chustiy yashagan mahalla hayotini yoritmoqchi ekanimizni aytganimizda, hududda qayta ta’mirlangan maktab faoliyatini ko‘rsataylik, chunki ayni paytda eng diqqatga sazovor nuqtamiz shu maktab bo‘ladi, degan fikrni bildirdi. Opaning so‘zlaridan o‘sha maktabni borib ko‘rishga qiziqish paydo bo‘lsa-da, ishni, avvalo, mahalla xotin-qizlarining quvonch-u tashvishlari bilan birga yashayotgan “Oqila ayollar” harakati a’zolari bilan suhbatdan boshladik.**

— Mahallada har xil odam bor. Ayniqsa, bugungi kun ayolining ko‘nglini topish juda qiyin. “Oqila ayollar” harakati rahbari Sanobar Shodiyevaning katta hayot tajribasi, salohiyati xonadonlar tinchligini saqlashda, mahalla obodligida asqotmoqda. U biz, o‘n besh nafar faollarni har doim yonida olib yuradi. Deyarli har kuni birgamiz. Ertalabdan mahallani bir aylanib chiqamiz. Ko‘p qavatli uylarga biriktirilgan mas’ul ayollar bilan bog‘lanib, o‘tgan kecha-kunduzda hech qanday tashvishli holat bo‘lmaganiga amin bo‘lgachgina, boshqa ishlarga kirishamiz, — deydi “Oqila ayollar” harakati faollaridan biri, kimyo fanlari nomzodi, dotsent Munavvar Saidova.

Darhaqiqat, mahalladagi 30 ta ko‘p qavatli uyning har biriga uch nafardan ibratli oila ayollari biriktirilib, har kungi holat bo‘yicha qariyb ikki yarim ming ayolni boshqarayotgan Sanobar Shodiyevani xabardor qilib turishar ekan. Saksonni qoralayotgan onaxon bo‘lishiga qaramay, uyma-uy yurib, bir yarim mingga yaqin oila dardi bilan hamnafas yashayotgan fidoyi ayolning ishlari tahsinga loyiq.

*Davomi 2-betda*

### Islohot odimlari

## ILM-FAN IQTISODIYOTNING MUHIM TAYANCHIGA AYLANDI





**Amalga oshirilgan ishlarni sarhisob qilish, yo‘l qo‘yilgan xato-kamchiliklarni tahlil qilib, yangi yilga yangi rejalar, maqsadlar bilan kirib borish muvaffaqiyatga zamin yaratadi. Bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etayotgan innovatsiyalar sohasida ham shunday. So‘nggi yillardagi islohotlar har bir sohaning yangi qirralarini ochdi. Mohiyatan “yangilanish, yangicha yondashuv” ma’nosini anglatuvchi innovatsiyalar fan-texnika yutuqlarini o‘zida mujassam etib, hayotimizning barcha jabhalariga yangilanish ruhi, yaratuvchanlik ishtiyoqini olib kirdi. Muhimi, mana shu jihatlar davlat siyosatining pirovard maqsadiga aylanib bormoqda. Shu bois, ijtimoiy-iqtisodiy, sanoat va ishlab chiqarish sohalarida ilm-fan va ishlab chiqarish uzviyligini ta’minlash, real sektordagi muammolarni hal etishga qaratilgan tadqiqotlar yangi loyihalarning yaratilishi hamda tatbiq etilishiga zamin bo‘lmoqda.**

*Davomi 5-betda*

**Bu yil, shubhasiz, yoshlarning barcha sohadagi intilishlari, qiziqishlari, tashabbuslari, mehnatu ijodlari rivojlanishi, muvaffaqiyat qozonishi uchun davlat tomonidan tashkiliy, moddiy imkoniyatlar yanada ko‘proq yaratiladi.**

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 4-yanvar, 2-son

www.yuz.uz | yuz.uznews | yuz_official | yuz.uz_news | yuz

## 2024-yil — Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili

# OZODLIGU OBODLIK KAFOLATLARI

**Muhtarama ULUG‘OVA,**
*O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi*

**O‘zbekiston xalq shoiri G‘afur G‘ulomning “Siz axir osmonni olmoq bo‘lsangiz, Ne uchun yelkamni tutib bermayin?”, degan satrlari keyingi yillarda katta-kichik davralarda tez-tez eslanadigan, tilga olinadigan bo‘lib qoldi. Sababi, hammamiz guvoh bo‘lib turganimizdek, yosh avlodga e’tibor, ularning jismonan, ma’nan, aqlan, ruhan barkamol bo‘lib ulg‘ayishi davlatimiz siyosatining muhim yo‘nalishiga aylandi.**



Yurtimiz onalarining bir vakili sifatida kuzataman, quvonaman, keyingi yillarda ming-minglab yoshlar o‘z yeriga, hovli-joyiga ega bo‘ldi. Mahallalarda bunyod etilgan yuzlab sport maydonlarida, shubhasiz, millionlab bolalar va yoshlar shug‘ullanmoqda. Iqtidorli yoshlarning bilim olishini moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash qonun, farmon va qarorlar bilan kafolatlanmoqda. Mahallalardan tortib, mamlakat miqyosida o‘tkaziladigan turli tanlovlar, bellashuvlar har xil sohadagi qobiliyatli o‘g‘il-qizlarni aniqlashga, ularni rag‘batlantirishu ilhomlantirishga, iqtidorini yanada o‘stirishga vosita bo‘lmoqda.

Prezidentimizning xalqimizga Yangi yil tabrigida 2024-yil yurtimizda “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili” deb e’lon qilinganini eshitib, dilimdan beixtiyor ana shunday lavhayu dalillar, akademik shoirning yuqorida eslab o‘tilgan satrlari takror kechdi.

Ishsizlik, qashshoqlik, oliy ta’lim dargohlariga qabuldagi korrupsiya, odamlar ahvoliga e’tiborsizlik, hayot haqiqatlarini balandparvoz gaplaru shiorlar bilan yopib tashlash kabi ijtimoiy adolatsizliklar tufayli mehnatkash xalqimiz va ayniqsa, yoshlar yillar davomida azob chekkani, o‘zlari bilib-bilmagan holda noto‘g‘ri yo‘llarga kirib qolgani, hatto umrlari xazon bo‘lib ketgani yaqin tariximizning achchiq kechmishlari, saboqlaridan biridir. Shuning uchun ham ming-minglab gektar yer yoshlarga bo‘lib berilganida, ular o‘z yerlarida quvonch, orzular bilan mehnat qilayotganini ko‘rganimda, iqtisodiy tomondan qiynalgan oilaning qizlari oliy ta’lim olib, oila va o‘zining hayotini tubdan o‘zgartirishi uchun moddiy-ma’naviy sharoit yaratilgani haqidagi ma’lumotlar bilan tanishganimda, ota-onalari bir umr dalada mehnat qilgan yurtdoshlarimning dilbandlari xorijning eng nufuzli universitetlarida o‘qishi uchun davlatimiz barcha xarajatlarni zimmasiga olgani haqidagi habarlarni eshitganimda ko‘zimga beixtiyor yosh, dilimga shukronalar to‘ladi. Seni qo‘llab-quvvatlab turuvchi davlating borligini his etib yashash boshqacha saodat ekan.

Hazrat Alisher Navoiy devonlaridan birini “Navodir ush-shabob” (“Yoshlik nodirliklari”) deb atashida biz anglagan va anglab yetmagan chuqur hikmat bor. Haqiqatan, yoshlik o‘zining imkoniyatlari, fazilatu xislatlari bilan har bir inson hayotining nodir davri. Bebaho umrning chiroyli, ibratli, imkon qadar adashish va yo‘qotishlarsiz kechishi ham insonning yoshlik yillarida olgan, o‘rgangan, o‘zlashtirgan tarbiyasi, ilmu ma’rifati, hunaru ko‘nikmasiga bog‘liq. “Vaqt — keskir qilich, agar sen uni kesmasang, u seni kesadi”, deydi allomalar. “Yoshlikda yozgani — toshga bitgani”, deydi dono xalqimiz.

Bu yil, shubhasiz, yoshlarning barcha sohadagi intilishlari, qiziqishlari, tashabbuslari, mehnatu ijodlari rivojlanishi, muvaffaqiyat qozonishi uchun davlat tomonidan tashkiliy, moddiy imkoniyatlar yanada ko‘proq yaratiladi. Ayni masalaning jamiyatga taalluqli muhim jihatlari ham bor. Benazir shoir Fuzuliy bir g‘azalida “Kavokib sayrini shab to sahar bedor o‘landan so‘r” (ya’ni yulduzlar sayrini tundan tonggacha bedor bo‘lgandan so‘ra) deydi. Jismu ruhida g‘ayrat-shijoat, qalbida bir dunyo orzular, qiziqishu hayrat, rejalar to‘lqinlanib turgan ko‘zimizning oqu qorasi, Vatan istiqboli — yosh yigit-qizlar tajribasizlik, ba’zida bilimlari yetib-yetmasligidan, soddayu ishonuvchanliklaridan hayotning keng ko‘chalari yoki tor so‘qmoqlarida adashib qolmasinlar. Buning uchun ularni mehr-muhabbat, ziyraklik, bag‘rikenglik, samimiyat bilan kuzatish, nigohimizu qalbimizdan uzoqlashtirmaslik, hamisha beg‘araz yordam va maslahatchi bo‘lish biz — hayot sinovlarini ozmi-ko‘pmi boshdan kechirgan katta avlod vakillarining vazifamizdir.

Kirib kelgan yilning “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili” deb atalishi maqsadu mohiyatida ajdodlarimizning, donishmand bobolarimizning asrlar davomida uqtirib kelgan, o‘zlari hayotda amal qilgan eng saodatbaxsh an’ana — yosh avlodning chin insonlar bo‘lib ulg‘ayishi, baxtli yashashi, jamiyatda munosib o‘rin topadigan shaxs bo‘lib kamolga yetishi uchun otalarcha g‘amxo‘rlik, mehr-muhabbat amali sari yana bir qutlug‘ qadam mujassam. Zero, avlodlarga ozodu obod Vatan qoldirish barobarida bu ozodligu obodlikning barqarorligi uchun elga e’tibor, g‘amxo‘rlik kerakligi ham oqsoch tarixning ko‘p bor tasdig‘ini topgan sabog‘idir.

## Prezident maktablari

**Shuhrat AZIBOYEV,**
*Namangan shahridagi Prezident maktabi direktori*

**Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yilida amalga oshirgan ishlarimizga nazar solsak, ta’lim muassasamiz erishgan natijalar chakki emas. O‘tgan o‘quv yilidagi 24 bitiruvchimizning eng a’lochilari muddatidan avval mamlakatimiz va chet ellardagi nufuzli universitetlarga qabul qilindi. Qolganlari ham imtiyozli ravishda talabalar safiga qo‘shildi.**



# BIZDA HAR DOIM XUSHXABAR BOR

Aslida, bizda har doim xushxabar bor. Axir Prezident maktabi degan yuksak maqomga yarasha faoliyat yuritib kelayotgan sharafli kasb mutaxassislari keng, yorug‘ va shinam xonalarda so‘nggi rusumdagi kompyuterlar, boshqa o‘quv jihozlari vositasida mashg‘ulotlar o‘tkazadi. Ular bilan yonma-yon xorijlik mutaxassislar aniq va ijtimoiy gumanitar fan asoslarini o‘g‘il-qizlarimiz ongiga chuqur singdiryapti.

O‘tgan yil haqida gapirganda, maktabimizning 11-sinf o‘quvchisi Botirxon Abdurahmonov erishgan muvaffaqiyatlarni mamnuniyat bilan tilga olsak arziydi. Bitiruvchimiz IELTSdan allaqachon 8 ball to‘plagan. AMC (American Mathematics competetions) olimpiadasi oltin medali sovrindori. Respublika olimpiadasida birinchi o‘rinni qo‘lga kiritdi. Shaxmatning rapid va blis yo‘nalishlarida respublika chempionlari ro‘yxatida turadi.

SEAMO xalqaro matematika olimpiadasi respublika bosqichidan Biloliddin Ismoilov, Ahmadjon Odilov, Parizoda Ahadjonova, Shohjahon Shukurjonov, Muhammad Nishonov, Xosiyat Rustamjonova, Munisabonu Akbarova kabi o‘quvchilarimiz g‘alaba bilan qaytdi. Endi Singapurda o‘tkaziladigan olimpiada finaliga astoydil tayyorlanmoqda.

O‘tgan yil 19-20-noyabr kunlari Turkiyaning Anqara shahrida “Iqlim o‘zgarishi va bolalar ishtiroki” mavzusida 24-xalqaro bolalar forumi bo‘lib o‘tdi. Unda maktabimiz o‘quvchisi Gavharshodbegim Homidova ham qatnashdi. Qizimiz faqat tinglovchilik bilan chegaralanmadi. Tadbirda faollik ko‘rsatib, iqlim o‘zgarishiga tegishli umumiy jarayonlarda turli millat va madaniyatlarga mansub bolalar o‘rtasida hamkorlikni mustahkamlashga bag‘ishlangan jo‘yali taklif va tashabbuslarini o‘rtaga tashladi.

Mamlakat fan olimpiadasining viloyat bosqichida ham bir guruh o‘quvchilarimiz faxrli o‘rinlarni egalladi. Xususan, Husanboy Mansuraliyev va Orifjon Husanov informatika fanidan 1-o‘ringa loyiqligini isbotlab, respublika bosqichiga yo‘llanma oldi.

Abrorjon Sadriddinov ustozlar orasida tashabbuskorligi va tashkilotchiligi bilan alohida ajralib turadi. Ko‘p kitob o‘qiydi, atrofdagilarni ham ortidan ergashtiradi. “Bilim ixlosmandlari” klubining eng yaxshi koordinatori sanaladi. Uning rahbarligidagi o‘quvchilar guruhi “Zakovat” o‘yinlarida mamlakatdagi Prezident maktablari ichida 1-o‘rinni olgani tasodif emas. Bu izchil izlanish, aqlni charxlovchi kitoblarni muttasil o‘qish, mantiqiy fikrlash salohiyatini muntazam kengaytirishga urinish mevasidir, albatta.

Maktabimiz o‘qituvchi hamda o‘quvchilari bir-biri bilan ijobiy raqobatni bir zum to‘xtatmaydi. Shuning uchun har oyda quvonarli yutuqlar qayd etamiz. Masalan, tasviriy san’at muallimi Abduvohid Isoqov yaqinda pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy unvonini oldi. Bitiruvchi qizimiz Go‘zalxon Haydarova mashhur Garvard universitetining muhandislik yo‘nalishiga o‘qishni naqd qildi, Davlatali Mallaboyev Nyu-York universitetining 100 foizli granti sohibi bo‘ldi.

Darvoqe, ta’limda yangi uslublarni joriy etish va o‘qitish sifatini baland pog‘onaga chiqarishda maktabda maqsadli boshqaruvni yo‘lga qo‘yish g‘oyat muhimdir. Yaqinda “Direktorlar uchun maktablarni rivojlantirish dasturi” doirasida Prezident va ijod maktablari rahbarlaridan iborat delegatsiyaning Buyuk Britaniyaga ikki haftalik safari tashkil etildi. Xalqaro seminar-treningda qator ilg‘or tajribalarni o‘rgandik. Dasturga muvofiq, Portsmut universitetida trenerlar ko‘magida kasbiy malakamizni oshirdik. Seminar-treningdagi ta’lim muhitini yaxshilash, samarali boshqaruv va ota-onalar bilan hamkorlikda ishlash mavzusidagi mashg‘ulotlar juda foydali kechdi. Ahamiyatlisi, Britaniya maktablarida direktor sifatida amaliyot o‘tashimizga ham imkoniyatlar yaratildi. Shuningdek, “Park community school” bilan ham tanishdik. Har birimiz ta’lim muassasalarimiz taraqqiyotiga taalluqli loyihamizni taqdimot qildik. Barchamizga sertifikatlar topshirildi.

Londondagi yana bir manfaatli tadbirga vakillarimizni yubordik. Anjuman “Angliya — Buyuk Britaniya: xorijiy tillarni o‘qitishdagi eng yaxshi maktablar o‘quvchilarining ta’lim sayohati” deb nomlangan. Qatnashchilar “Ardmor” til o‘qitish maktabi, Kembrij, Oksford universitetlariga tashrif buyurdi.

Ta’lim tizimini jadal rivojlantirish yuzasidan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan vazifalar asosida puxta rejalar tuzdik. Shu ustuvor vazifalarni so‘zsiz bajarish, Vatanimiz istiqboliga hissa qo‘shishga qodir avlodni tarbiyalashda g‘ayrat-shijoat va katta mehnat talab etiladi.

Dovruqli ziyo maskanimiz jamoasi mazkur talabni hamisha chuqur anglagan holda ta’lim mavqeini ko‘tarishning ta’sirchan usullaridan unumli foydalanaveradi.




## Hayotiy tashabbuslar qanotida

# AZIZ ASRIMIZNING AZIZ ODAMLARI

## mahalladagi yangilanishlarga bosh qo‘shmoqda

Boshlanishi 1-betda

— Bundan bir-ikki yil oldin bir oila hech tinchimay qoldi. O‘rtada bolalar bor. Na er ko‘nadi gapga, na xotin. O‘sha kunlari “Ibratli oila” tanlovini o‘tkazish rejamizda bor edi. Kechqurun uyda choy icha turib, shu oilani ishtirokchi qilsam-chi, degan fikr keldi. Ertasigayoq xonadonga bordim, so‘zni “menga yordam qilmasanglar bo‘lmaydi”dan boshladim. Shunday demasam, ko‘nishmasdiyam gapimga. Eriga qarab juda noqulay ahvolda qolganimni, tanlovda ular ishtirok etmasa, bo‘lmasligini tashvishli qiyofaga kirib aytdim. Ikki haftalik tayyorgarlik jarayonida er-xotin yarashdi-qo‘ydi. Bularning yarashishiga monelik qilayotgan narsa — oiladagi janjalning ko‘chaga chiqib ketgani ekan-da. Hech nima bo‘lmaganday yarashib olishga o‘zlaricha qo‘ni-qo‘shnidan uyalib yurgan er-xotin birov bilib, birov bilmay apoq-chapoq bo‘lib ketdi. Oilalar bilan ishlash ham bir siyosat, — deydi Sanobar opa.

Mahallada xotin-qizlarning ko‘proq uyda qolib, o‘z qobig‘iga o‘ralib qolishi, shu tufayli faollik darajasi pasayib ketishining oldini olish uchun art-terapiya va neyrografiya bo‘yicha seminar mashg‘ulotlari o‘tkazilgan. “Ma’naviyat davralari”, “Odobli qiz”, “Kiyinish madaniyati”, “Ibratli qaynona”, “Ma’rifatli ona”, “Oilada tibbiy madaniyatni shakllantirish” kabi tadbirlar tashkil etilgan. Bu kabi harakatlar esa oilalarda ayol degan mavqening mustahkamlanishiga sezilarli ta’sir etmoqda. O‘tgan asrning 70-yillarida bunyod etilgan 168-sonli “Ko‘zmunchoq” nomli DTT qayta qurilgani, mahalla hududida nufuzli xorijiy institut filialining binosi qad rostlagani, ko‘p qavatli savdo majmuasi faoliyati yo‘lga qo‘yilgani ham mahallaning ko‘rkiga ko‘rk qo‘shgani aniq.

Sanobar Shodiyeva bu o‘zgarishlarni zamon bilan birga qadam tashlash, deb ta’rifladi. Ayniqsa, 298-umumta’lim maktabining yutuqlari haqida gapirar ekan, yuragidagi hayajonini yashirib o‘tirmadi. Mustaqillik bilan tengdosh bu maktab aytsa aytgulik zamonaviy qiyofaga ega bo‘lganini esa maktabga borib bildik.

2022-yilda bu ta’lim dargohini kapital ta’mirlash uchun davlat budjetidan 11 milliard 800 million so‘m ajratilgan. Maktab mutlaqo yangicha uslubda qaytadan ta’mirlangan. Birinchi qavat Birinchi Renessans, ikkinchi qavat Ikkinchi Renessans davrining ruhini beradi kishiga. Devorlarga katta qilib ishlangan allomalar surati ilm va abadiyatdan so‘zlaydi go‘yo. Shu asnoda uchinchi qavat “Yangi O‘zbekiston — Uchinchi Renessans poydevori!” g‘oyasi asosida shakllantirilibdi.

— 2023-yil o‘quvchilarimning oliy ta’lim muassasalariga kirish ko‘rsatkichi o‘tgan yillarga qaraganda yuqori bo‘ldi. Bitiruvchilarimdan Nargiza Azamatova bir yo‘la o‘nta xorijiy OTM talabasi bo‘lgani meni juda xursand qildi. Yana bir o‘quvchi qizimiz Diyora Rustamova esa IELTSdan 8,5 ballni qo‘lga kiritdi. To‘rt o‘quvchi maktabni oltin medal bilan tugatdi. Shu joyda bir narsani alohida aytib o‘tmasam bo‘lmaydi. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Turin politexnika universiteti va Olmazor tuman hokimligi hamkorligida nanotexnologiya bo‘yicha yangi “DremSat ta’lim dasturi” loyihasi bizning maktabimiz o‘quvchilari ishtiroki bilan boshlandi. Loyiha bo‘yicha insholar tanlovi o‘tkazilib, barcha maktablardan 20 nafar o‘quvchi saralab olindi. Ular o‘qitildi va maktabimizdagi 3D modellashtirish va robototexnika xonalarida o‘z qo‘llari bilan kichik Nano sun’iy yo‘ldoshlarini yasadi va joylashuvi bo‘yicha mos kelgani uchun Navoiy viloyati hududida ochiq stratosferaga uchirildi. Havo sharini, quyoshni, umuman, o‘zlari xohlagan narsani yasab, dasturlashtirdi. Uchirilgan kichik sun’iy yo‘ldoshchalarning qayergacha yetib borgani va uchish darajasi esa maktabga o‘rnatilgan katta ekran orqali bolalarning ota-onalariga onlayn tarzda namoyish etib borildi. Meni eng suyuntirgan narsa — mana shu loyiha ortidan ishtirokchi o‘quvchilarimning to‘rt nafari Amerikaning nufuzli oliygohlariga 108 ming dollarlik grant asosida o‘qishga kirdi. Bu esa bolalarda fizika va matematika fanlariga, ayniqsa, ixtiro qilishga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirdi, — deydi maktab direktori Nargiza Toshxo‘jayeva.

Sanobar Shodiyevaning, avvalboshdan, shu maktabni yoritaylik, deganicha bor ekan. Maktabda ikkinchi xorijiy til va kasbga yo‘naltirish ishlari namunali tarzda yo‘lga qo‘yilgan. O‘g‘il bolalar uchun yuqorida aytilgan IT sohasida 3D modellashtirish va qizlar uchun tikuvchilikka qiziqishni rivojlantirishga e’tibor kuchaytirilgan. Tuman hokimligi tomonidan 12 ta zamonaviy tikuv mashinasi sovg‘a qilinishi ham tez orada yuzlab chevar qizlarni, ehtimolki, jahon moda maydoniga chiqa oladigan modelyerlarni yuzaga chiqarsa, ajabmas. Zero, yigirma yillab Respublika bolalar badiiy ijodiyoti markazini boshqargan Sanobar Shodiyeva aytganiday, o‘quvchining iqtidorini ocha bilish yuz foiz o‘qituvchiga bog‘liq. Maktab direktorining o‘n besh yil “Mashhura” firmasida orttirgan tajribasi, asli mutaxassisligining modelyer-dizayner ekani shu joyda ish berishi shubhasiz.



Ikkinchi xorijiy til sifatida esa koreys tili tanlab olindi. Bolalar 7-sinfdan boshlab qo‘shimcha tarzda koreys tilini ham o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Koreyadan har bir chorak uchun alohida darsliklar keltirildi. Maktab rahbari, mutaxassis kam, deb qo‘lini qovushtirib o‘tirmadi. O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetidan koreys tili yo‘nalishi bo‘yicha o‘qib, amaliyotga kelgan to‘rt talabani darhol ishga qabul qildi. Dars soatlarini ham ularning kelib-ketish imkoniyatlariga qarab belgiladi. Maktabning shoir Chustiy bog‘i o‘rnida barpo qilinganida ham bir hikmat borday...

Har qalay o‘quv dargohining imkoniyatlari o‘zidan ko‘paymoqda. Hind muallimi Abdulla Paduvazning ustoz va o‘quvchilarni ingliz tilida puxta ilm olishi uchun shu maktabga biriktirilishi nur ustiga nur bo‘ldi. O‘qituvchilik sohasida xotin-qizlar ko‘proq ekanini, shuningdek, bolalar ta’lim-tarbiyasi maktab sharoitida yuqori bosqichga olib chiqilishi, avvalo, onalarning og‘irini yengil qilishini hisobga olsak, mahalla ayolining buguniga havas bilan qaramaslikning iloji yo‘q.

Ha, 298-umumta’lim maktabi mahallaning ko‘ksiga qadalgan nishon bo‘libdi, desak xato bo‘lmaydi. Maktab binosining ichini hayrat bilan kuzatar ekanmiz, biz ham shunday maktablarda o‘qiganimizda edi, degan o‘y, orzu o‘tdi xayolimizdan.

Maktab direktori Nargizaxonning yashab turgan uyini sotish evaziga o‘g‘liga jigarini ko‘chirtirgan ona haqidagi hikoyasini tinglab esa ko‘zimizdagi yoshni tiya olmadik. Xasta ayoli va nochor sharoitda qolgan ikki farzandidan voz kechgan ota o‘rnida ota bo‘lib, shaharning boshqa burchagiga ko‘chib ketgan o‘quvchilarining dardi bilan yashagan hazrati insonni uchratdik biz. Uysiz qolgan ona-bolalar Yashnobod tumanidagi buvisining uyiga ko‘chgan. Bolalar yo‘l uzoqligidan, tabiiyki, dars qoldira boshlagan. Nargizaxon ahvolni o‘rgangach, bolalarning o‘qishini ko‘chirish uchun ular yashaydigan mahalladagi maktab direktoriga shaxsan borib uchrashdi. O‘zi ham bir maktabning rahbari bo‘la turib, o‘sha direktorni shu o‘quvchisini qabul qilishga ko‘ndira olmadi. Yashnoboddan Olmazorga yetib kelguncha bolalar uchta transportda qatnagan. Nargiza Toshxo‘jayeva ularning dars qoldirmasligi uchun oylik ish haqidan o‘quv yili yakuniga qadar yetti oy davomida yo‘lkira xarajatlarining kunligini kunda beribdi.

...Mahalladan qaytar ekanmiz, akademik shoir G‘afur G‘ulomning

**“Aziz asrimizning aziz onlari**
**Aziz odamlardan so‘raydi qadrin...”,** degan satrlari bot-bot xayolimizda takrorlandi. Zero, davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan “Inson — jamiyat — davlat” tamoyilining amaldagi isbotini o‘z ko‘zimiz bilan ko‘ryapmiz, quloqlarimiz bilan eshityapmiz. Poytaxtimizning Olmazor tumanidagi Chustiy mahallasining farovon hayoti, odamijon insonlari esa buni yana bir karra tasdiqladi.

**Muhayyo PIRNAFASOVA,**
*jurnalist*

## Yangi O‘zbekiston ruhi

**“...Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilari — uyg‘oq qalbli ziyolilar, shoir va adiblar, san’at namoyandalari, ma’naviyat va ma’rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanlar. XX asr boshlarida xalqimizni ozodlik va ilm-ma’rifat uchun kurashga chorlagan jadid bobolarimizni eslaylik”.**

**Shavkat MIRZIYOYEV,**
**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti**





# “OL BAYROG‘INGNI, QALBING UYG‘ONSIN!”

**Minhojiddin MIRZO,**
*Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi rahbari*

**Boshlanishi 1-betda**

Maqsad qancha ulkan bo‘lsa, mashaqqati, zahmati ham shunga yarasha bo‘ladi. Ammo unga erishish yo‘lidagi shiddat, samaralar ortidan keladigan ruhiy halovat oldida u zahmatlar hechdir. Chunki barchamiz ko‘rib turibmiz, dunyo xaritasida kuchli markazlar o‘zgalarga bosim o‘tkazayotgan bir paytda vatanimiz milliy birlik, inson qadri, ilm olish g‘oyasi bilan istiqbol sari dadil qadam tashlab bormoqda.

Ijtimoiy tarmoqlar orqali erkimiz, mustaqilligimizga nisbatan ma’naviy tahdidlar, axborotlar kurashi, ijtimoiy-siyosiy qarashlar tizimidagi chuqur transformatsiya jarayonlarining barchasi bizga uyg‘oq qalblar, jasoratli ziyolilar kerakligini yana bir bor eslatib turibdi.

Shu kunlarda millionlab yuraklarda milliy birlik olovi yondi. Vatan va xalq kelajagi haqida kim qanday yo‘sinda, qanday o‘rtanish, katta jur’at va jasorat bilan so‘z aytar ekan, barchasining mohiyatida jadid ma’rifatparvarlari peshvosi Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Haq olinur, berilmas!”, degan so‘zlari yarqirab ketdi.

Ha, biz buyuk millat, buyuk el bo‘lgan, bobolari qudratli davlatlar barpo etgan, ilm-u fazlda yuksak maqomlarga ko‘tarilgan millatmiz.

Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g‘arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur.

Bugun mendan “Yig‘ilish qanday o‘tdi?”, deb so‘raganlarga bitta javob berishni istardim: “Bu yig‘ilishdan keyin jadidlar qayta tug‘iladi!”.

Negaki, bugungi tahlikali dunyoda bizga ijtimoiy axloq, ma’naviyat, ma’rifat nuri, fidoyilik va yuksak vatanparvarlik ruhi har qachongidan



ham zarur. Har qanday yuksak iqtisodiy va ma’rifatli jamiyat asosida, avvalo, inson kamoloti, fikriy yuksalishi turadi. Uning o‘q ildizida esa axloq va ruh tarbiyasi turgan. Zero, axloqsiz mukammallikka erishib bo‘lmaydi.

Ana shu nuqtayi nazardan davlatimiz rahbari ma’naviy-ma’rifiy sohada o‘tkir va ko‘ndalang bo‘lib turgan eng muhim masalalarga e’tibor qaratdi. “O‘zimizga bir savol berib ko‘raylik: biz hozirgi keskin sharoitda g‘oyaviy-mafkuraviy sohada raqobatga tayyormizmi? Yosh avlodimiz tarbiyasi murakkab zamon talablariga javob beryaptimi? Bular oddiy savollar emas. Odamni jiddiy o‘ylantiradigan, tashvishga soladigan savollar. Agar biz bu yorug‘ dunyoda “o‘zbek”, “O‘zbekiston” degan nomlar bilan yashab qolishni istaydigan bo‘lsak, bu savollarga bugun javob topishimiz va ularni hal etish bo‘yicha amaliy harakatlarni aynan bugun boshlashimiz shart. Ertaga kech bo‘ladi”.

Ko‘rinib turibdiki, bugungi kun nafaqat iqtisodiy, balki tarbiyaviy, ma’naviy-ma’rifiy, mafkuraviy sohalarda ham shiddatli raqobatga tayyor bo‘lishimizni talab etmoqda. Demak, kechiktirmay bu boradagi tarbiyaviy, ma’naviy-ma’rifiy yondashuvlarimiz, dasturlarimiz, tizimlarimiz, burch va mas’uliyatimizni tubdan tanqidiy ko‘rib chiqishimiz lozim.

Davlatimiz rahbari bejiz: “Bugun ma’naviyat boshqa sohalardan o‘n qadam oldinda yurishi kerak, ma’naviyat yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi shart!”, deb aytmadi. Bu bitta, ikkita shu sohaga aloqador tashkilotning emas, butun jamiyatning harakatiga aylanishi kutilmoqda. Bu ishlardan birorta soha, birorta vazirlik va idoraning chetda turishi mumkin emas.

Chunki millat va xalq, Vatan qismatiga daxldor eng yuksak g‘oyalar, millatparvarlik ruhi ma’naviy zaminda voyaga yetadi. Tariximizdagi ikki buyuk Uyg‘onish zamirida ham, avvalo, ma’naviy jasorat yotadi. Jadid bobolarimiz milliy hurriyat yo‘lidagi kurashda bejiz ma’naviyat va ma’rifat yo‘lini tanlamadi.

Birgina Cho‘lponning otashin so‘zlarini eslaylik:

*Ol bayrog‘ingni, qalbing uyg‘onsin,*
*Qur yangi davlat, yovlar o‘rtansin!*

### Yangi O‘zbekistonda duv-duv gap

Xalqimizda “Yaxshi so‘z ham omonat, uni o‘zgalarga yetkazish kerak”, degan ibora bor. Prezident raisligida o‘tgan mazkur yig‘ilishning ovozasi bugun mamlakatimizning har tarafida: ziyolilar qalbidan tortib, mahallalar, xonadonlargacha yetib bormoqda.

O‘sha kuni Prezident tomonidan mahallalarda keng ko‘lamli islohotlarni balandparvoz gaplar bilan emas, aniq hayotiy misollar bilan sodda, tushunarli, yangi usulda yetkazish lozimligi ta’kidlangan edi. Mazkur anjumanda ishtirok etgan “Ma’naviyat karvoni”ning peshqadam vakillari bo‘lgan taniqli olimlarimiz, shoir va yozuvchilarimiz, san’at va madaniyat namoyandalari xalq ichiga, qalbiga otlandi. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Madaniyat vazirligi, Yozuvchilar uyushmasi, Yoshlar ishlari agentligi va Toshkent shahar hokimligi hamkorligida Toshkent shahri bo‘ylab keng ko‘lamda yangi kuch, yangi g‘oyalar bilan aholiga yuqori kayfiyat, ruhlantiruvchi kuch beradigan “Mahallada duv-duv gap” ma’naviy-ma’rifiy tadbirlari boshlandi.

Taniqli olimlar Oqil Salimov, Shavkat Ayupov, Qahramon Allayev, Narzulla Jo‘rayev, Mansur Bekmurodov, Qo‘ng‘irotboy Sharipov, Jamila Shermuhammedova, Sadriddin Turopjonov, Oynisa Musurmonova, Dilorom Bobojonova, shoir va yozuvchilar Sirojiddin Sayyid, Mahmud Toir, Zulfiya Mo‘minova, madaniyat va san’at vakillari Ozodbek Nazarbekov, Munojot Yo‘lchiyeva, Yodgor Sa’diyev, Erkin Komilov, G‘ulomjon Yoqubov, Gavhar Zokirova, Shuhrat Dadajonov, Mirolim Qilichev kabi fidoyilarimiz ma’naviy tadbirlarning qalbiga aylandi. Tadbirlar xalqimiz yuragida jaranglayotgan “Yangi hayot uchun, yangi O‘zbekiston uchun!” shiori ostida bo‘lib, poytaxtimizdagi mahallalar to‘liq qamrab olinishi rejalashtirildi.

> Xalqimizda “Yaxshi so‘z ham omonat, uni o‘zgalarga yetkazish kerak”, degan ibora bor. Prezident raisligida o‘tgan mazkur yig‘ilishning ovozasi bugun mamlakatimizning har tarafida: ziyolilar qalbidan tortib, mahallalar, xonadonlargacha yetib bormoqda.

Shuningdek, teatrlar, muzeylar, sayilgohlar, yangi O‘zbekiston davrida bunyod etilgan diqqatga sazovor joylarga tashriflar, mahallalarda, ta’lim muassasalarida kitob yarmarkalari, kitobxonlik va adabiy kechalar, “Zakovat”, “Ibrat farzandlari”, “Mutolaa” va “Besh muhim tashabbus” kabi ma’naviy-ma’rifiy va sport loyihalari o‘tkazilib kelinmoqda. Bunyodkorlik ishlari natijasida yurtimiz qiyofasining o‘zgarib borayotgani, mahallalarning avvalgi va bugungi ko‘rinishi haqida maxsus videoroliklar namoyish etilayotir.

Ha, ma’naviyat va ma’rifat barcha zamonlarda tengsiz qudrat, baxt-saodat, tinchlik, bunyodkorlik, hamjihatlik mezoni, ruhiy poklanish va qalbni yuksaltiruvchi ne’mat bo‘lib kelgan. Chunki u millatni, xalqni, demakki, insonlarni hamisha uyg‘onishga, ezgulikka, taraqqiyotga, bu olamni obod qilishga, go‘zallikka burkashga chorlagan. Hazrat Alisher Navoiy aytganidek:

*Bu chaman o‘lmog‘ida mavjud anga,*
*Bor edi inson guli maqsud anga.*

Kimki, mana shu ezgu maqsad yo‘lida insonni bu olamni gulga burkaydigan, ya’ni uni farovon qiladigan bunyodkor, yaratuvchi kuch deb qadrlar ekan, shaksiz o‘sha yerda obodlik bo‘ladi.

Davlatimiz rahbarining “Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni, ruhi ma’naviyatdir”, degan so‘zlari mohiyati bugun yanada kengroq mazmun kasb etmoqda. Chunki ma’naviy asoslarsiz, ma’naviy negizlarsiz, ma’naviy qadriyatlarsiz, milliy ruhsiz hech bir davlat o‘zining yuksak maqsadlariga erisha olmaydi. Shunday ekan, har bir sohaga ruhiy-ma’rifiy, ijtimoiy axloqning mustahkam poydevori sifatida ma’naviyatni olib kirishimiz lozim.



Umuman, nafaqat iqtisodiyot, balki boshqa sohalarni ham ma’naviyatsiz tasavvur qilish qiyin. Chunki ma’naviyat taraqqiyotga kuch va ruh beradi. Ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy ta’kidlaganidek: “Kiyimning yuza qismi qanchalik yaltiroq bo‘lmasin, uning ichi nobop, ayniqsa, kir bo‘lsa, bu illat, albatta, yuzaga uradi”.

Jamiyat o‘zgaryapti, maktab o‘zgaryapti, ota-onalarning farzand tarbiyasidagi mas’uliyati ham o‘zgaryapti. Endi bu o‘zgarishlar faollik, tashabbuskorlik, yuksalish bosqichlariga kirishi kutilmoqda.

Mahallalarda o‘tayotgan tadbirlar doirasida ziyolilar ishtirokidagi uchrashuvlarda aholi tomonidan: “Men pensiya pulimdan nevaramni “G‘uncha” jurnaliga obuna qilaman”, “Kitoblarim ko‘p, uyimda mahallamdagilar uchun kutubxona ochaman”, “Jadid” gazetasi chiqarkan, albatta, unga oilamiz uchun obuna bo‘laman”, “Mahallamizni jinoyatsiz, ajrimsiz maskanga aylantiramiz”, “Har bir xonadonda kutubxona tashkil qilamiz”, “To‘yxonalarimizni o‘quv markazlariga aylantiramiz”, degan fikrlarni eshitib, yangi ma’naviy uyg‘onish nasimlarini his etyapmiz.



### Tilda, fikrda va ishda birlik

Yangi O‘zbekistonda ma’naviy yuksalish sari yangi davr, yangi bosqich boshlandi. Ma’naviy-ma’rifiy sohadagi bu o‘zgarishlar va Prezident tashabbuslaridan so‘ng jadidlarning “Tilda, fikrda va ishda birlik” g‘oyasi tilimda qayta-qayta yangrayverdi. Bu g‘oya yuqorida ta’kidlaganimizdek, milliy birlik, hamjihatlik asosida yanada mustahkamlanadi.

2021-2023-yillarda shahar va tumanlarda 195 ta “Ma’naviyat va ma’rifat maskani”ni barpo etishning manzilli ro‘yxati tasdiqlandi.

O‘tgan yil yakuniga kelib, 173 ta tuman (shahar)da Ma’naviyat va ma’rifat maskanlari barpo etildi. Andijon, Samarqand, Sirdaryo, Surxondaryo, Toshkent va Farg‘ona viloyatlarida rejalashtirilgan maskanlar to‘liq ishga tushirildi.

Markaz huzurida Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti tashkil etilganidan buyon 3 yil davomida 3117 nafar Markaz tizimi, vazirlik, idora va davlat ijro organlarining ushbu sohaga mas’ul xodimlari malakasi oshirildi.

2023-yilda 1 ta xalqaro anjuman, 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, 5 ta respublika anjumani, 7 ta respublika ilmiy-ma’rifiy konferensiya hamda 242 ta o‘quv-seminari tashkil etildi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm viloyati va Toshkent shahrida Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050-yilligiga bag‘ishlab “Abu Rayhon Beruniy ilmiy merosining jahon fani rivojidagi o‘rni” mavzusida xalqaro anjuman, Andijon viloyatida “Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiy merosining bashariyat ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotidagi o‘rni” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazildi. Xalqaro tadbirlarda ishtirok etish maqsadida 45 davlatdan 52 mutaxassis olim va ekspert yurtimizga tashrif buyurdi.

Ma’naviy-ma’rifiy jarayonlardagi faolligi uchun mamlakatimizning 179 fuqarosi “Ma’naviyat fidoyisi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi. “Ma’rifat” targ‘ibotchilar jamiyati faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha yangi elektron platforma ishga tushirildi. Jamiyat huzurida 40 nafar iqtidorli yoshlardan iborat “Yosh targ‘ibotchilar harakati” tashkil etilib, jamiyat a’zolari soni 810 nafarga yetkazildi. “Oyina” ma’naviy-ma’rifiy portali ishga tushirildi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda “Ma’naviyat festivali”, turkum tadbirlarini o‘tkazish yaxshi an’anaga aylandi. Prezidentimizning “Biz bir bo‘lsak — yagona xalqmiz, birlashsak — Vatanmiz!” degan ezgu da’vatlari asosida mamlakatimiz bo‘ylab ilk marotaba “Ma’naviyat marafoni” bo‘lib o‘tdi. Milliy bayram tusini olgan ushbu marafon butun yurtimiz bo‘ylab katta aks sado berdi.

8 ta hudud (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Namangan, Farg‘ona, Qashqadaryo, Samarqand, Sirdaryo, Surxondaryo, Toshkent viloyatlari) dagi 48 ta chegaraoldi mahallalarda yashovchi yoshlar turli yot g‘oyalar girdobiga tushib qolishining oldini olish, ularni Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyat hamda an’analarga hurmat, istiqlol g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash maqsadida “Vatan ostonasi” festivali o‘tkazildi.

Mart, aprel, iyun va avgust oylarida “Xalq Konstitutsiyasi bilan xalqchil davlat sari!”, “Yangi O‘zbekiston yoshlari, birlashaylik!”, “Yangi hayot uchun, Yangi O‘zbekiston uchun!” shiorlari ostida 14 ta hududda “Ma’naviyat festivali” o‘tkazildi.

2023-yilda o‘tkazilgan “Eng namunali tuman va shahar” tanlovida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tavsiyasiga ko‘ra, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli yo‘lga qo‘ygan, bu borada yuqori samaradorlikka erishgan hamda o‘z hududida ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlagan 14 ta tuman va shahar; “Eng namunali vazirlik va idora” tanlovida 23 ta vazirlik va idora ishtirok etdi. G‘oliblarga Prezident sovg‘asi — “Damas” avtomobili, pul mukofotlari, kitoblar to‘plami, qimmatbaho sovg‘alar topshirildi.

Davlat va jamiyat hayotining barcha sohalaridagi islohotlarning eng muhim strategik yo‘nalishlari mazmun-mohiyatini ochib berishga qaratilgan 12 turdagi “Yangi O‘zbekiston” plakatlar to‘plami 11 ming nusxada nashr etilib, 10 ming donasi umumta’lim maktablariga jihozlash uchun topshirildi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Mo‘ynoq tumanida so‘nggi 5 yil ichida amalga oshirilgan ulkan bunyodkorlik ishlari, aholi turmush tarzidagi ijobiy o‘zgarishlarni o‘zida aks ettirgan “Yangi Mo‘ynoq” kitob-albomi tayyorlanib, o‘zbek, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida 3000 nusxada chop etildi. Toshkent va Nukus shaharlari hamda Mo‘ynoq tumanida keng jamoatchilik vakillari ishtirokida “Yangi Mo‘ynoq” kitob-albomining taqdimotlari o‘tkazildi.

Albatta, bu kechagi kun, kechagi natijalar. Bizning joriy yildagi faoliyatimiz yuksak da’vatlarga munosib bo‘lishi lozim.

### Ma’naviyat — munavvarlik

Men ziyoli umrini shamga o‘xshatar edim, u o‘zi yonib erisa ham, taratgan nuri atrofni nurafshon qiladi, derdim. Lekin endi ziyolilarimizni tarixdagi buyuk qahramonlarimizga o‘xshatgim keladi. Zero, ziyolilar, ilm ahli bugun yangi kuch sifatida ma’naviy jasorat maydoniga chiqishi har doimgidan ham muhim, suv va havodek zarur.

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar asosida “Surxondaryo tajribasi” misolida mamlakatimizda ilk marotaba Ma’naviyat sektori tashkil etildi. Mazkur sektor yurtimizda ilk bor ma’naviyat sohasida yangi qon, yangi yurak bo‘lib urishi uchun barcha chora-tadbirlar ko‘rilmoqda.

Muhimi, bu boradagi ishlarimizni yanada jadallashtirish uchun joriy yildan boshlab har yili 100 milliard so‘mdan mablag‘ ajratiladigan bo‘ldi.

Kengashda o‘sha kuni yana bir xushxabar aytildi. UNESCO Bosh konferensiyasi sessiyalari qariyb 40 yildan buyon faqat Parijda o‘tkazilar edi. 2025-yilda esa bu konferensiyaning sessiyasini Samarqandda o‘tkazish belgilandi. Ushbu nufuzli anjumanga Tashkilotga a’zo barcha davlatlardan vakillar tashrif buyuradi.

Bu nimani anglatadi? Bu asrlar davomida dunyo tamadduniga o‘z so‘zi, o‘z ilmi, o‘z zehnini chiroq qilgan millat bugun yana o‘z o‘rnini topayotganini, bu millatning buyukligini tan olish, ularga yuksak hurmat, hayrat bilan qarash lozimligini yana bir bor ko‘rsatib qo‘ymoqda. Voqelikka “Samarqand ruhi” qaytmoqda.

Yana bir xushxabar, 2024-yil arafasida yangi O‘zbekiston hayotida ulkan tarixiy voqea sodir bo‘ldi. Prezidentimiz maxsus tugmani bosib, umumiy quvvati ikki ming to‘rt yuz megavatt bo‘lgan 6 ta quyosh va shamol elektr stansiyalarini tarmoqqa uladi. Ulkan qurilmalardan adoqsiz simlar orqali 2 million xonadonga yangi nur oqimi — uzluksiz va kafolatli elektr energiyasi kirib bordi.

Mazkur tantanali marosimda ishtirok etarkanman, dilimdan shunday o‘ylar o‘tdi: “Ajab, agar elektr quvvati bo‘lmasa, uylarimizga taft kirmaydi, tunlar xonadonlarimiz munavvar, yo‘llarimiz nurafshon bo‘lmaydi. Ish joylarimizda dastgohlarimiz “jonsiz” qurilmaga aylanadi, mehnatda unum bo‘lmaydi. Bizni yaqinlar, dunyo bilan bog‘layotgan telefonlarimiz bir parcha matohga aylanadi. Bu ko‘zga ko‘rinmas ne’mat mohiyatida “munavvar nur”— ma’naviyat yashirin. Bugun bu nursiz taraqqiyot yo‘q, bu nursiz farovonlik bo‘lmaydi. Ma’naviyat — tuganmas ruhiy quvvat, u bilan ko‘ngil chiroqlari, tafakkur qandillari yonadi. U bor joyda odamiylik ziyosi charog‘on bo‘ladi.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida IT xizmatlar va dasturiy mahsulotlar eksporti hajmini 5 milliard dollarga yetkazish maqsadi belgilangan.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 4-yanvar, 2-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz



Nuqtayi nazar

# RAQAMLI TARAQQIYOT

## Usiz sohaning kelajagi yo‘q



**Har bir davrning o‘z dolzarb vazifa va muammolari bo‘ladi. Bugungi kunimizning eng muhim talablaridan biri raqamli iqtisodiyotni joriy etishdir. Shu bois, mamlakatimizda ushbu yo‘nalish rivojiga alohida e’tibor qaratilmoqda. 2020-yil yurtimizda Ilm-ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili, deb e’lon qilinganidan keyin bu borada, ayniqsa, keng ko‘lamli ishlar boshlab yuborildi.**

**Ibrohimjon FOZILJONOV,**
*iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori*



2020-yil 28-aprelda davlatimiz rahbarining “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Bu bejiz emas, albatta. Ayni kunda ko‘plab taraqqiy etgan mamlakatlarda raqamli texnologiyalar iqtisodiyot rivoji hamda aholi farovonligiga xizmat qilmoqda.

Masalan, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish jarayonini davlat tomonidan tartibga solish bo‘yicha AQSH, Yevropa Ittifoqi davlatlari, Xitoy, Koreya, Yaponiya va Rossiya kabi mamlakatlarning tajribasi bu borada, asosan, ikkita — bozor va ma’muriy-boshqaruv yondashuvlari mavjudligidan dalolat bermoqda. AQSHda raqamli taraqqiyot bo‘yicha “Kun tartibida — raqamli iqtisodiyot” deb nomlangan birinchi hukumat dasturi 2015-yilda ishlab chiqilgan. U mamlakat uchun asosiy imkoniyatlarni ta’minlaydigan to‘rt blokni o‘z ichiga oladi. Bular — erkin va oshkora internetni jadallashtirish, ishonch va xavfsizlikni barqarorlashtirish, tarmoqqa erkin kirish va barcha xohlovchilar uchun professional ko‘nikmalarni egallash imkoniyati, innovatsiyalar hamda ta’sirchan samaralar beruvchi va yorqin yangi avlod texnologiyalarini joriy qilish. Shunday qilib, AQSH siyosati raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, bu jarayonda ishtirok etadigan tarmoq va sohalar ulushini ko‘paytirish, IT sanoat bilan shug‘ullanadigan tadbirkorlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan.

AQSHdan farqli o‘laroq, Yevropa Ittifoqida a’zo mamlakatlar iqtisodiyoti va sanoat tarmoqlarining raqamli o‘zgarishini jadallashtirishga qaratilgan 30 dan ortiq milliy va mintaqaviy dastur hamda strategiyalar mavjud. Yevropada raqamlashtirishga qaratilgan yagona yo‘nalishni shakllantirish xususiy biznesni mazkur loyihalarga jalb qilish bilan texnika va bozor innovatsiyalarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash yo‘sinida amalga oshirilmoqda. Qit’a davlatlarining raqamlashtirish sohasidagi siyosatining asosiy tamoyillarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari uchun yagona Yevropa qoidalari va standartlarini ishlab chiqish, iste’molchilar manfaatini himoya qilish hamda tadqiqot va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlashdan iborat jarayon tashkil qilmoqda.

Sharqda esa raqamli iqtisodiyotning uchta giganti — Xitoy, Janubiy Koreya va Yaponiya bor. Bugun jahonda elektron tranzaksiyalarning 40 foizdan ortiq ulushiga ega Xitoy IT texnologiyaning eng yirik bozori hisoblanadi. Uning raqamli taraqqiyoti qudratli ichki bozor, raqobatning yuksak sur’ati va tezlik bilan rivoj topayotgan raqamli sektorni davlat tarafidan har tomonlama qo‘llab-quvvatlash kabi uchta muhim omil hisobiga jadallashmoqda.

Xitoy Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari akademiyasining 2022-yilgi hisob-kitoblariga ko‘ra, raqamli iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulot o‘sishiga qo‘shgan hissasi ba’zi rivojlangan davlatlar darajasidan ham oshib ketib, 70 foizga yetdi. 2014-yildan 2022-yilgacha raqamli iqtisodiyot YIMning yillik o‘sish sur’atlariga nisbatan 50 foizdan yuqori bo‘ldi. 2005-yilda raqamli iqtisodiyot hajmi atigi 2,6 trillion yuan yoki YIMning 14 foiziga teng bo‘lgan, xolos. Demak, Chin yurtining raqamli iqtisodiyoti hajmi so‘nggi yillarda 1300 foiz oshgan, shu bilan birga, ikkinchi va uchinchi darajali sanoat shu davrda mos ravishda 340 va 590 foiz o‘sdi.

Janubiy Koreya, o‘z navbatida, 2018-yildan 2022-yilgacha mamlakatni rivojlantirish strategiyasida platforma asosidagi iqtisodiyot taraqqiyotiga suyanishini ma’lum qildi va bunga erishdi ham. Bu raqamli texnologiyalar va global raqamli platformalarga asoslangan iqtisodiyotning yangi turidir.

Yaponiyada mamlakat taraqqiyotining uzoq muddatli maqsad va vazifalarini belgilab beradigan asosiy hujjat 2016-yilda hukumat tomonidan yirik biznes federatsiyasi — “Keydanren” ko‘magida qabul qilingan “Society 5.0” strategiyasidir. Ushbu strategiya fuqarolar farovonligi darajasining o‘sishini ta’minlash uchun ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirish maqsadida ilg‘or raqamli texnologiyalardan foydalangan holda, vujudga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy tizimning o‘ziga xos turidir. Ushbu strategiya mashhur “Industry 4.0” konsepsiyasiga asoslangan bo‘lib, u nafaqat ishlab chiqarish muammolarini hal etadi, balki uning maqsadi jismoniy va kibermakon integratsiyasi orqali ijtimoiy farovonlikni ta’minlashga ham qaratilgan.




### O‘zbekistonda ushbu yo‘nalishdagi holat qanday?

Prezidentimiz raisligida o‘tgan yil 20-dekabr kuni tarmoq va hududlarda axborot texnologiyalarini rivojlantirish hamda davlat boshqaruvini raqamlashtirish bo‘yicha ustuvor vazifalar yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida bu boradagi vaziyat chuqur tahlil qilindi.

Zamon talabidan kelib chiqib, mamlakatimizda telekommunikatsiya infratuzilmasini yaxshilash, soha va tarmoqlarni raqamlashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda. O‘tgan yilning o‘zida ta’lim, bank, moliya, bojxona, qishloq xo‘jaligi, geologiya, kadastr kabi sohalarni raqamli transformatsiya qilish doirasida 100 ta dasturiy loyiha ishlab chiqilgan. 500 dan ziyod yangi IT kompaniyalari tashkil etilib, sohaga 475 million dollar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya kirib kelgan.

Hududlarda 20 mingdan ortiq yoshlar mustaqil shug‘ullanib, xalqaro onlayn platformalar orqali yaratgan mahsulotini chetga sotgan. Ammo bu raqamlar O‘zbekiston salohiyati uchun yetarli emas. Davlatimiz rahbari shuning uchun ham sohani rivojlantirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan tegishli topshiriq va ko‘rsatmalar berdi.

Xususan, IT kompaniyalarni hududlardagi bo‘sh turgan binolarga bir yil muddatga bepul joylashtirish, iqtidorli dasturchilarga bir yil ichida bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan kompyuter va texnikalar berish, 50 dan ortiq IT mutaxassisni ishli qilgan kompaniyalarning bir yil davomidagi ish haqi xarajatining 15 foizgacha qismini qoplash, eksportchi korxonalarga chetdan ekspert jalb qilish, xalqaro konferensiyalarda qatnashish xarajatlarining 50 foizini kompensatsiya qilish, IT parkni xalqaro miqyosga olib chiqish uchun Germaniya va Saudiya Arabistonida uning sho‘ba korxonalarini ochish kabi ko‘plab vazifalar ko‘zda tutilmoqda.



Bunday yangi imkoniyatlar hisobiga joriy yilda IT xizmatlari hajmini 2 barobar oshirish mumkin. Bunga erishish uchun, avvalo, chet tili va texnologiyalarni biladigan kadrlarga ehtiyoj seziladi. Shu bois, Raqamli texnologiyalar vazirligiga ushbu yilda 8 ming nafar eng iqtidorli yoshlarni saralab, nufuzli xalqaro kompaniyalar talabiga mos dastur asosida o‘qitish vazifasi qo‘yildi. Shuningdek, “Har bir mahallada kamida ikki nafar dasturchi” loyihasi boshlanadi, amerikalik hamkorlar bilan “Inklyuziv raqamlashtirish” loyihasi doirasida 20 ming aholi bandligi ta’minlanadi. 2026-yilda Xalqaro informatika olimpiadasi ilk bor mamlakatimizda o‘tkazilishi kutilyapti, bu ham raqamlashtirish sohasidagi imkoniyatlarimizni oshirishga xizmat qiladi. Boz ustiga, raqamlashtirish turli idora va tashkilotlarda inson omilini kamaytirish hisobiga korrupsiyaning oldini olish garovi sifatida ham muhim jarayondir.

Prezidentimiz o‘tgan yili Raqamli texnologiyalar vazirligiga tashrifi chog‘ida Raqamli boshqaruv markazida “O‘zbekiston — 2030” strategiyasiga muvofiq amalga oshirilayotgan ishlar taqdimoti bilan tanishdi. Ma’lumki, ushbu strategiyada mamlakatimizni mintaqaviy “IT NUB”ga aylantirish maqsadi belgilangan. Bu davlat boshqaruvi va sohalarni raqamlashtirish, aloqa infratuzilmasini yaxshilash, IT ta’limni rivojlantirish kabi ko‘p omillarni talab etadi.

Oxirgi yillarda ushbu yo‘nalishlarda katta o‘zgarishlar bo‘ldi. 2017-yilda yurtimizda IT kompaniyalar soni 147 ta bo‘lgan bo‘lsa, hozirda 1600 taga yetgan. Ish o‘rinlari ham qisqa vaqtda 10 barobar ko‘payib, 24 mingtadan oshgan. 2017-yilda 600 ming dollar bo‘lgan eksport hajmi 2023-yil yakuni bilan 300 million dollardan oshdi.

My.gov.uz yagona portali orqali bugungi kunda 8 milliondan ortiq aholi va tadbirkorlar 570 turdagi onlayn xizmatdan foydalanmoqda. Ijro intizomi yagona tizimi — ijro.gov.uz orqali davlat idoralari va ularning quyi bo‘g‘inlari xodimlari tomonidan 28 millionta hujjat elektron ayirboshlangan. 2022-yilda BMTning Elektron hukumat reytingida mamlakatimiz 18 pog‘ona yuqorilab, 69-o‘rinni egalladi. 2030-yilga borib, ushbu reytingda birinchi o‘ttiztalikka kirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida IT xizmatlar va dasturiy mahsulotlar eksporti hajmini 5 milliard dollarga yetkazish maqsadi belgilangan. Buning uchun hududlarda IT infratuzilmasini va venchur bozorini rivojlantirish, “local to global” tamoyili orqali mahalliy korxonalarni eksportga olib chiqish, yurtimizda xalqaro kompaniyalarning ofislarini ochish kabi ko‘plab choralar ko‘zda tutilgan. Shu maqsadda ikki tomonlama soliqqa tortishning oldini olish, IT park hududida Angliya huquqini joriy etish, rezidentlar uchun soliq imtiyozlarini 2040-yilgacha uzaytirish, umuman, bu sohaga 100-yillik qulaylik yaratish bo‘yicha takliflar muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari mamlakatimizning axborot texnologiyalari, turizm, investitsiya salohiyatini mujassamlashtirgan yaxlit imijini yaratish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

Prezidentimiz har doim, avvalo, aholi eng ko‘p to‘qnash kelayotgan sohalarni raqamlashtirish, odamlarning og‘irini yengil qilish zarurligini ta’kidlaydi. Shu nuqtayi nazardan, sog‘liqni saqlash, qishloq xo‘jaligi va boshqa ijtimoiy tarmoqlarda raqamlashtirish to‘liq joriy etilsa, bu yangilanishlarni odamlar o‘z hayotida, byurokratiya va korrupsiyaning kamaygani misolida, davlat xizmatlari ko‘rsatish jarayoni tezlashganida sezadi. Zero, raqamlashtirish rivojlanish va yurtdoshlarimiz hayotini yaxshilash borasidagi ishlarning eng katta zamini.

Binobarin, raqamlashtirish hayotimizning har bir jabhasida mehnat qilayotgan fuqarolarning og‘irini yengil qilishi, ularning vaqtini tejashi, ishlarning yaxshi va sifatli bajarilishiga ko‘maklashishi bugungi kunda jahon tajribasida o‘z isbotini topdi. Bu boradagi texnologiyalar barcha sohalarda taraqqiyot sur’atlarini jadallashtiradi va pirovard maqsadlarga tezroq va yaxshiroq erishishga ko‘maklashadi. Davlatimiz rahbari ta’biri bilan aytganda, “Raqamli iqtisodiyotsiz mamlakat iqtisodiyotining kelajagi yo‘q”. Eng asosiysi, yurtimizda raqamli texnologiyalar qancha tez joriy qilinsa, amalga oshirilayotgan islohotlar natijasi shuncha sifatli va muvaffaqiyatli bo‘ladi.

Dolzarb mavzu

# SUV TEJAMKORLIGIGA BARCHAMIZ MAS’UL





**Xalqimiz “Yer — xazina, suv — gavhar”, deb bejiz aytmagan. Qadimdan usta dehqonlar oqova va ichimlik suvdan oqilona foydalanishga, uni asrashga jiddiy e’tibor qaratib kelgan. Bugungi murakkab iqlim sharoitida obihayot tejamkorligi juda dolzarb ahamiyatga ega.**

**Zarif MUQIMOV,**
*iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent*

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha qator vazifalar belgilangan. Jumladan, suv ishlatish samaradorligini 25 foiz oshirish, qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘orishda suv tejaydigan texnologiyalar bilan qamrab olingan yerlarning umumiy maydonini 2 million gektargacha, jumladan, tomchilatib sug‘orish texnologiyasini 600 ming gektarga yetkazish kabilar nazarda tutilgan.

Prezidentimiz raisligida 2023-yil 29-noyabr kuni o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ham bugungi murakkab iqlim sharoiti, suv manbalari yil sayin kamayib borayotgani, 2030-yilga borib, suv tanqisligi 15 milliard kub metrga yetishi mumkinligi, ushbu muammolarning oldini olish uchun keskin choralar ko‘rish lozimligi ko‘rsatib o‘tildi.

Belgilangan chora-tadbirlar asosida Qashqadaryo viloyatida ham keng ko‘lamli ishlar boshlab yuborildi. Jumladan, Koson va Qarshi tumanlarida hashar yo‘li bilan kanallarni betonlash boshlandi. Bu ishda Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti jamoasi ham bevosita ishtirok etib, Koson tumanidagi kanallarga beton qoplamalari yotqizishning ilmiy-texnik asoslarini ishlab chiqishda hissa qo‘shdi. Shuningdek, institutning 20 nafar professor-o‘qituvchisi hamda 80 nafarga yaqin talabasi amaliy jarayonlarda faol ishtirok etmoqda. Professor-o‘qituvchilar, magistr va tayanch doktorantlar ilmiy asoslangan taklif va maslahatlar bermoqda, talabalar esa o‘quv-tanishuv amaliyotlarida qatnashib, kanallarni betonlash ishlarini kuzatib bormoqda. Bu esa bo‘lajak yosh kadrlarni olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llab, yetuk soha mutaxassisi bo‘lishida muhim tajriba maktabi vazifasini o‘tamoqda.

Ma’lumotlarga qaraganda, Qashqadaryo viloyatidagi aksariyat kanal va ariqlar hozirga qadar beton qilinmagani sababli ular orqali yetkazib berilayotgan suvning 30-35 foizi isrof bo‘lmoqda. Koson, Nishon, Muborak, Mirishkor tumanlarida bu ko‘rsatkich 40 foizdan yuqori. Shuningdek, viloyat suv xo‘jaligida bir yilda qariyb 2,5 trillion so‘m, shundan 2,3 trillion so‘mi elektr energiyasi uchun sarflanib, 1 kub metr suv tannarxi respublikada eng qimmat — 401 so‘mni tashkil etmoqda.



Yaqinda suv yo‘qotilishi yuqori bo‘lgan kanallarni sifatli betonlash, sug‘orish tarmoqlari, gidrotexnik inshootlar hamda nasos agregatlarni tozalash va ta’mirlashni tashkil qilish bo‘yicha viloyat ishchi guruhi tuzildi. Shuningdek, klaster, fermer xo‘jaliklari hisobidagi kanal va ariqlarni betonlash, yaroqsiz lotok va sug‘orish tarmoqlarini ta’mirlash va almashtirish ko‘rsatkichlari belgilab olindi.

Mazkur ko‘rsatkichlarga muvofiq, vohada yaqin uch oy ichida jami 1570 kilometr, jumladan, 2024-yil yanvar, fevral va mart oylarida mos ravishda 480, 550 va 540 kilometr ichki sug‘orish tarmog‘ini betonlash rejalashtirilgan. Shu maqsadda vohadagi suv xo‘jaligi tashkilotlari va ixtisoslashgan qurilish-pudrat korxonalariga tegishli maxsus texnika vositalari tumanlarga biriktirildi.

Viloyatdagi suv xo‘jaligi tashkilotlari hisobida 256 ta magistral va xo‘jaliklararo kanal bo‘lib, umumiy uzunligi 2476 kilometrga teng. Shundan bir qismi betonlangan.

Albatta, suv tejamkorligiga erishish birgina soha mutaxassislari zimmasidagi mas’uliyat emas, balki barchamiz birdek bajarishimiz kerak bo‘lgan nihoyatda muhim yumushdir. Shu bois, Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti jamoasi doimiy ravishda bu yo‘nalishdagi sa’y-harakatlarda, qator loyihalarda faol ishtirok etib kelmoqda. Jumladan, “Amudaryo havzasi suv resurslarining ekologik muhofazasi va suv sifatini boshqarish texnologiyasini yaratish”, “Lalmikor maydonlarda don va dukkakli ekinlar yetishtirishda yomg‘ir va kichik sel suvidan samarali foydalanish texnologiyasini ishlab chiqish” mavzularida loyihalar tayyorlanib, tegishli soha ekspertlariga berildi. Bundan tashqari, aynan suv xo‘jaligi yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar ham oliygohda olgan bilim va ko‘nikmalarini amaliyotda sinovdan o‘tkazish maqsadida hududlarga jalb etildi.

Hozir yangi texnologiyalar asosida tomchilatib, yomg‘irlatib sug‘orish tizimlari ancha qo‘l kelmoqda. Endi har bir ariq va kanalni betonlash samarasi o‘laroq, juda katta suv sarfining oldi olinadi. Natijada qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishda kam xarajat bilan yuqori hosildorlikka erishiladi.

## Islohot odimlari



# ILM-FAN IQTISODIYOTNING MUHIM TAYANCHIGA AYLANDI

**Olimjon TO‘YCHIYEV,**
*Innovatsion rivojlanish agentligi direktori*



Boshlanishi 1-betda

To‘rt-besh yil ilgari ilmiy ish, kashfiyotlarni tijoratlashtiradigan mexanizm yaratilganini faxr bilan ta’kidlagan bo‘lsak, bugun turli soha yetakchilari, ayniqsa, yoshlar g‘oyalarini daromadli mahsulotga aylantiradigan yaxlit tizim yo‘lga qo‘yilgani haqida quvonch bilan gapiramiz. 2023-yilda ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida jami 558 loyiha amalga oshirildi.

Sohalarda mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan loyihalar ko‘pligi olim va ilmiy izlanuvchilarning turli sohalarga, masalalarga yangicha yondashuvlar asosida yechim topishga urinayotganidan darak. Aslida, rivojlangan mamlakatlarda ham startap g‘oyalar muammolardan kelib chiqib yaratiladi va shundagina bozordan munosib o‘rin oladi. Yuqorida ta’kidlanganidek, 500 dan ortiq loyihaning moliyalashtirilishi yurtimizda ham mazkur ekotizim mukammal yo‘lga qo‘yilayotganidan darak.

### Hamkorlik — jahon bozorlarida raqobatbardoshlikka erishishning muhim sharti

Mamlakatimizda ilm-fan, texnologiya va innovatsiyalarni rivojlantirish manbalarini diversifikatsiya qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Boisi, har qanday ilmiy loyihani amalga oshirish katta mablag‘ talab qiladi. Buning uchun xususiy sektor va xorijiy sarmoyalarni jalb qilishga alohida ahamiyat qaratildi. Muhimi, qo‘shma loyihalar ikkala tomonning ham umumiy manfaatlariga xizmat qilib, allaqachon o‘z samarasini ko‘rsatmoqda.

Bugun jahon bozorlarida raqobatbardoshlikka erishishning muayyan talablari bor.  Ilm-fan va texnologiyalar sohasidagi hamkorlik mana shu talablarning dastlabkisi sanaladi. Chunki mazkur sohalar jamiyat hayotining barcha jabhalarini bog‘lovchi mexanizmga aylanib ulgurdi.



2023-yilda Innovatsion rivojlanish agentligi delegatsiyasining Tailand Qirolligiga tashrifi amalga oshirildi. Uchrashuvlar davomida Qirollikning Innovatsiyalar milliy agentligi bilan hamkorlik memorandumi imzolandi. Iyun oyida Italiya — O‘zbekiston biznes-forumi bo‘lib o‘tgan edi. Forum biz uchun muvaffaqiyatli bo‘ldi. Ya’ni olimlarimiz tomonidan amalga oshirilayotgan innovatsion loyihalarga xorijiy investorlar katta qiziqish bildirdi. Xususan, “Qarshi shahrida jamoat transportini vodorod yoqilg‘isiga o‘tkazish bo‘yicha “Vodorod poligoni” loyihasining texnik-iqtisodiy samaradorligini aniqlash, loyihaga xorijiy investorlarni jalb qilish yuzasidan Italiyaning Turin politexnika universiteti o‘rtasida anglashuv memorandumi imzolandi. Shuningdek, Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti hududida Italiya — O‘zbekiston ilg‘or muhandislik markazini tashkil etish bo‘yicha shartnoma imzolandi. Yana bir muvaffaqiyatli kelishuv shu bo‘ldiki, amaldagi yonish dvigatelli transport vositalarini bosqichma-bosqich minimal darajada o‘zgartirishlar kiritgan holda gibrid transport vositalariga aylantirish va yashil energiya sektorini rivojlantirish maqsadida “SunMotive” kompaniyasi bilan qo‘shma loyihani amalga oshirish bo‘yicha memorandum imzolandi.

Qolaversa, Xitoy Xalq Respublikasining Shinjon tibbiyot universiteti bilan erishilgan kelishuvlarga asosan, o‘zbekistonlik talabalar mazkur oliygohda tahsil olishi uchun 45 ta kvota va 1 million dollarga yaqin grant ajratildi. Shuningdek, Koreya Respublikasi bilan qishloq xo‘jaligi texnikasini ishlab chiqaruvchilarga ko‘mak ko‘rsatish maqsadida yurtimiz olimlarining amaliyot o‘tashi yo‘lga qo‘yildi.

> **“2023-yilda Innovatsion rivojlanish agentligi delegatsiyasining Tailand Qirolligiga tashrifi amalga oshirildi. Uchrashuvlar davomida Qirollikning Innovatsiyalar milliy agentligi bilan hamkorlik memorandumi imzolandi.”**

### Integratsiya mahsulot sifatini oshiradi, tannarxni kamaytiradi

Ijtimoiy-iqtisodiy, sanoat va ishlab chiqarish sohalarida ilm-fan va ishlab chiqarish uzviyligini ta’minlash, real sektordagi muammolarni hal etishga qaratilgan tadqiqotlar yangi loyihalarning yaratilishi hamda tatbiq etilishiga zamin yaratmoqda. Ayni yo‘nalishda amalga oshirilgan islohotlar natijasida o‘quv muassasalari, shuningdek, sanoat va ishlab chiqarish korxonalari yagona maqsad asosida birlashgan tizimga aylandi. Umumiy o‘rta ta’limdan tortib, oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, manfaatdor tarmoq korxonalarigacha hamkorlik mexanizmi ishlab chiqilib, ularning o‘zaro integratsiyasi uchun mustahkam zamin yaratildi. Bu mahsulot sifatining oshishi, tannarxining kamayishiga, xususan,  raqobatbardosh bo‘lishiga xizmat qiladi.

Bugun yoshlar, talabalar o‘rtasida innovatsion tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish istagida bo‘lganlar soni ortib bormoqda. Standart yo‘nalishlar to‘g‘ri kelmaydigan bu sohada “ko‘zga ko‘rinish” katta mehnat talab qiladi. Bahorgi va kuzgi moliyalashtirish ishlarida taqdim etilgan loyihalarni kuzatib amin bo‘ldikki, navqiron qatlam ayni zamonda talab yuqori mahsulotni muqobillaridan arzon narxda taqdim eta olish, mahalliy va jahon bozorlaridan o‘rin egallash yo‘llarini izlamoqda.

O‘tgan yilda jami 9 ta startap loyihalar tanlovlari e’lon qilinib, 54 startap loyiha moliyalashtirishga tavsiya etildi. Ayni jihatda 2022-yilga nisbatan o‘sish 57 foizni tashkil qildi. Natijada 45 ta kichik va o‘rta biznes subyekti tashkil qilinib, 20 ta yangi xizmat turi joriy etildi hamda 43 ta yangi mahsulotlar ishlab chiqarilishi yo‘lga qo‘yildi. Quvonarlisi, ular orasida yosh tadbirkorlar ulushi yuqori.

### Salohiyatni ro‘yobga chiqarishga munosib sharoit

Amalga oshirilgan ishlarni sarhisob qilar ekanmiz, sohaning yanada rivojlanishi uchun muhim omil sanalgan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi barcha yo‘nalishlardagi ishlarni butunlay yangi bosqichga olib chiqqanini ta’kidlashni istar edim.

Davlatimiz rahbarining “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini 2023-yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoit yaratish, barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta’minlash kabi ustuvor yo‘nalishlar belgilangan.

Nima uchun inson salohiyatini ro‘yobga chiqarishga alohida e’tibor qaratilyapti? Javob shundaki, texnika asrida inson kapitali eng katta foyda keltiradigan omilga aylanib bormoqda. Mazkur hujjatda yosh tadqiqotchilar ulushini oshirish, ularning ilmiy izlanishlarini qo‘llab-quvvatlash, 40 yoshgacha bo‘lgan tadqiqotchilar ulushini kamida 60 foizga yetkazish, ilmiy tashkilot xodimlarining ish haqini o‘rtacha 2 barobar oshirish asosiy maqsadlar sifatida belgilangan. Mulohaza qilsak, yurtimiz ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga ega mamlakat va Strategiyada belgilangan maqsadlar raqobatbardosh, eksportbop hamda import o‘rnini bosuvchi, yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgani ayon bo‘ladi. O‘z navbatida, sanoatning barqaror va mutanosib ravishda



o‘sishi hamda ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash asosida uning yetakchi tarmoqlarini rivojlantirishga ham erishiladi.

Yurtimizda ilm-fan va innovatsiyalarga asoslangan iqtisodiyotni takomillashtirish chora-tadbirlari amalga oshirilayotgan bir vaqtda iqtisodiyotning real sektorlariga ilm-fan yutuqlarini joriy etishga katta e’tibor qaratilayotgani bizga g‘urur bag‘ishlab, yangi marralar sari undaydi. Bu boradagi natijalar ishlab chiqarishdagi muammolarni innovatsion yechimlar orqali bartaraf qilishga zamin yaratadi. Jamiyatda olimlarning nufuzi yanada ortadi.

Yana bir muhim jihati “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida o‘zaro manfaatdorlik, rag‘bat va raqobatga asoslangan “innovatsiya — kapital — innovatsiya” jarayonini ta’minlash ham belgilab qo‘yilganki, bu orqali ishlanma egasi, tadbirkor va investorlarning mulkka egalik huquqi kafolatlanadi. Shuningdek, qishloq xo‘jaligida eksport hajmini yiliga 10 milliard dollarga yetkazish hamda zamonaviy resurstejamkor texnologiyalarni paxta va g‘alla maydonlarining 40-50 foizida joriy etish belgilangan bo‘lib, o‘tgan yilda 33 ta amaliy va innovatsion loyiha moliyalashtirildi.

Sanasak, sohada amalga oshirilgan islohotlar va buning natijasida erishilgan yutuqlar ko‘p. Aynan mana shu imkoniyatlar ilm-fanni iqtisodiyotning muhim tayanchiga aylantira oldi. Izlanuvchilar, tadqiqotchilar o‘rtasida innovatsion tadbirkorlikka bo‘lgan qiziqish ortdi.



## Inson qadri uchun

# “ELEKTRON POLIKLINIKA” uning qulayligi nimada?

**Egamberdi ota kun davomida negadir ozroq holsizlandi. Bir oz tobi qochganini sezdi. O‘ylab qarasa, tibbiy ko‘rikdan o‘tganiga ancha bo‘lgan. Ertaga, albatta, shifoxonaga borishni niyat qildi. Ammo birdaniga yodiga shifokor eshigi oldida navbat kutaverib, toliqib qolishini o‘ylab, shashtidan qaytdi. O‘tgan safar ham bir soatlarda ko‘rikdan o‘tib chiqaman, deb peshinga qadar qolib ketgandi. Haliyam keksaligini hurmat qilib, ba’zi yoshlar oldinga o‘tkazib yubordi. Bo‘lmasa, naq kechga qadar sarson bo‘lishi aniq edi. Nima bo‘lsa bo‘lar, ertaga bormasa bo‘lmaydi.**

Oliygohdan o‘qishdan qaytgan nabira bobosini tushkun kayfiyatda ko‘rib, xavotirga tushdi. Egamberdi otadan hol-ahvol so‘radi. Ota nabirasiga dardini aytdi. Shifokorga ko‘rinmoqchi bo‘layotganini, ammo eshikma-eshik yurib, vaqt ketishini o‘ylab, borgisi kelmayotganini ta’kidladi.

Nabirasi esa qo‘liga telefonini olgancha “Elektron poliklinika” axborot tizimiga kirib, bobosining ism-familiyasini yozib, navbatga qo‘ydi. Bu tizim bo‘yicha uzoq vaqt sarflamay ham bemalol tibbiy nazoratdan o‘tib chiqishini bobosiga tushuntirdi. Bir oz muddatdan so‘ng qachon, qaysi vaqtda shifoxonaga borishini aytdi. Ota elektron tizim deganini unchalik tushunmagan bo‘lsa-da, sarson bo‘lmaslik umidi bilan ko‘ngli ko‘tarildi.

Ertangi kuni elektron tizimdan ko‘rsatilgan soatda shifoxonaga borib, hech bir muammosiz salomatligini tekshirtirdi. Egamberdi ota hech joyda kutib qolmadi. Uyiga qaytarkan, bundan mamnun bo‘ldi. Shifokorlarni duo qildi.



Keyingi paytlarda tibbiyot tizimini raqamlashtirish, xususan, birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida avtomatlashtirilgan axborot tizimini joriy etish masalasiga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Xususan, birlamchi tizimda “Elektron poliklinika” axborot tizimi yo‘lga qo‘yilayotgani bu borada qulayliklar yaratmoqda.

Bugun vaqt insoniyat uchun eng qimmatli resursga aylandi. Bozordami, yo‘ldami, biror muassasadami, ko‘pchilikning navbatda turishga sira toqati yo‘q. Odamlar har bir ishi tez va oson bitishini istaydi. Ayniqsa, shifo muassasalarida. Biror dard bilan kelib, tik oyoqda soatlab kutib qolish bemor ahvolini og‘irlashtirsa og‘irlashtiradiki, yengillashtirmaydi. Toqatsizlik natijasida turli ko‘ngilsizliklar kelib chiqadi. “Elektron poliklinika” esa ortiqcha ovoragarchilik va qog‘ozbozliklarga chek qo‘yib, barcha ishlarni tizimli ravishda bajarishga, tezkor va aniq ishlashga, eng asosiysi, shifokorlarning bemorlar uchun ko‘proq vaqt ajratishiga imkon bermoqda.

Jumladan, Nishon tumanida tizimni rivojlantirish maqsadida tegishli muassasalar monitor, monoblok, printer bilan ta’minlandi. Tuman markaziy shifoxonasi, oilaviy poliklinika, oilaviy shifokorlik punktlariga shisha tolali kabellar tortildi va “Elektron poliklinika” tizimi yo‘lga qo‘yildi. Tibbiyot xodimlarining mazkur yo‘nalishdagi savodxonligini oshirish uchun IT markazlarda bepul mashg‘ulotlar o‘tkazildi.

Ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikada lokal tarmoq qayta rekonstruksiya qilindi. Endi “Elektron poliklinika” tizimi onlayn ro‘yxat asosida fuqarolarni qabul qilib borish, masofaviy diagnostika, bemor salomatligini masofadan monitoring qilish, tibbiy kartalarning tarmoqli tizimi, virtual tibbiy ko‘rikdan o‘tish, virtual shifoxona xizmati va elektron retseptlar berishga yo‘l ochdi.

— Fuqaro “Elektron poliklinika” orqali ro‘yxatga olingach, oilaviy shifokorga yo‘naltiriladi, — deydi muassasa dermatovenerolog shifokori Mansur Qo‘ziyev. — Shifokor bemor uchun zarur tekshiruvlarni belgilab bergach, shu asosda tor soha mutaxassislariga uchrashishi yoki laborator tahlil topshirishi mumkin. Bemorning barcha tahlillari avtomatik tarzda oilaviy shifokorga ko‘rinib turadi. U shu asosda murojaatchiga elektron retsept beradi. Bemor retsept asosida poliklinikaning o‘zidan buyurilgan dorini olishi ham elektron tarzda nazorat qilinadi. Fuqarolar esa tibbiy tahlillarini, kasallik tarixini uyda o‘tirgan holda onlayn tarzda kuzatib turishi mumkin.

Bu tizimda bemorlarning kasalliklarini tasniflash, o‘sha hudud aholisida ko‘p uchraydigan xastaliklar bazasini shakllantirish va tahlil qilish imkoni mavjud.

— Shifokorlar ko‘rigidan tez-tez o‘tib turaman, — deydi 71 yoshli Egamberdi bobo Jumayev. — Kompyuterlashgan yangi tizim juda qulay ekan. Vaqting ketmaydi, ortiqcha ovoragarchilik, asabbuzarlik, qog‘ozbozlik yo‘q. Ilgari soatlab kutib qolardik. Shifo istab kelib, gohida kasal battar xuruj qilardi. Ayniqsa, yosh bolalar, biz kabi keksalar uchun juda qulay bo‘libdi. Endi hech bir muammosiz salomatligimizni nazorat qilib boramiz.

— Tuman tibbiyot birlashmasida 2021-yil 1-noyabrdan bepul tibbiy yordam olish huquqini beruvchi order taqdim etish tizimi yo‘lga qo‘yildi, — deydi Nishon tumani ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikasi mudiri Shamshir To‘rayev. — Ehtiyojmand oilalar “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimiga muvofiq aniqlanib, imtiyozli toifadagi shaxslar uchun davlat budjeti mablag‘lari hisobidan davolanadigan kasalliklar ro‘yxati, tibbiy xizmatlar hajmi va tibbiyot muassasasining darajalari belgilanib, imtiyozli toifadagi shaxslar tegishli platforma orqali bazaga kiritilib, elektron yo‘llanma orqali imtiyozli davolanishga yuborilmoqda. Ayni paytgacha shaffoflik ta’minlangan elektron tizim orqali 465 bemorimiz respublika shifoxonalarida davolanib chiqdi.

Yangi dastur vositasida shifokor va bemorning vaqti tejalib, tibbiy xizmat sifati va samaradorligi oshmoqda. Tibbiyot xodimlari faoliyati va ish yuklamasini muntazam kuzatib borish, statistik ma’lumotlarni shaffof tarzda yuritish imkoniyati yaratilmoqda.

**Akbar RAHMONOV,**
*“Yangi O‘zbekiston” muxbiri*

**Bugun shu kutubxonada 4 kishining bandligi ta'minlangan. Bu yerda jahon adabiyoti durdonalari, atoqli o'zbek yozuvchilari, shoir va olimlarining ko'plab asarlari kitobxon ko'zini quvnatadi.**

www.yuz.uz · yuz.uznews · yuz_official · yuz · yuz

Saodat manzili





# Tafakkur kashfiyoti

**Munojat MO'MINOVA,**
*"Yangi O'zbekiston" muxbiri*

**Yaqinda Andijondagi Yoshlar markazida hokim va yoshlar uchrashuvida 12 yoshli kitobxon Asadillo Roziqov viloyat hokimi Shuhrat Abdurahmonovga kutubxonaga ehtiyoj masalasida murojaat qildi.**

Andijon tumanidagi Teraktagi mahallasilik Asadillo kitob yetishmagani uchun "Yosh kitobxon" ko'rik-tanlovida eng oliy natijani qo'lga kirita olmaganini bildirdi. O'sha kunning o'zida murojaatchi yashayotgan mahallada kutubxona qurish boshlandi. 5 mingdan ziyod yosh ishtirok etgan uchrashuvda barpo bo'lajak ziyo maskanini kelgusida Asadillo Roziqovning o'zi boshqarishi taklif etildi.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishidan so'ng tashabbuskorlik asosida kutubxona tashkil qilishni niyat qilganlar ko'paygan bo'lsa, ajab emas. Boisi, Prezidentimiz bugun o'z hisobidan kutubxonalar barpo etayotgan tashabbuskor insonlar soni ortib borayotgani barchamizni mamnun etishini aytib, bunday xayrli ishga qo'l urgan 100 dan ziyod yurtdoshimiz orasida marhamatlik tadbirkor Qobiljon Obidov nomini ham tilga oldi.

Qobiljon aka bilan suhbatimiz chog'ida inson uchun onaning sevinch yoshlarini ko'rishdan ortiq quvonch bo'lmasligiga yana bir bor iqror bo'ldik. Yig'ilishda nomi e'tirof etilgan payt 80 yoshni qoralagan onasi o'ziga sig'may, yig'lab yuborgani, shu kunlarga yetkazganiga shukronalar keltirganini aytar ekan, suhbatdoshimizning ko'ngli toshdi, ko'ziga yosh oldi.

Halol mehnat qilganni, el uchun jon kuydirganni xalqimiz bilar ekan-da. Qobiljon aka 50 mingdan ziyod kitob, 300 mingta elektron kitobga ega uch qavatli zamonaviy kutubxona ochishdan avval Erkin Vohidov nomidagi shaxmat maktabi, "Bolalar akademiyasi" xususiy maktabgacha ta'lim tashkilotini qurib bergan inson. Shuning uchun ham bugun el ardog'ida, mehnatlari rohatini ko'rib yuribdi. Unga havas qiladigan ancha-muncha. Qahramonimizdan o'z mablag'i evaziga kutubxona ochishga nima turtki bo'lgani haqida so'raganimizda, davlatimiz rahbarining 2020-yilda Turkiya Xalq kutubxonasi (Millet Kütüphanesi)ning tantanali ochilish marosimidagi ishtirokidan g'oyat ruhlanib ketganini aytdi.

— O'sha marosimda Prezidentimiz faxrli mehmon sifatida ishtirok etgani menga kuch bergan. Mana, o'zbek elining salohiyati, qudrati deya g'ururlanganman. "Dunyodagi har qaysi davlat, har qaysi xalq, birinchi navbatda, intellektual salohiyati, yuksak ma'naviyati bilan qudratlidir. Bunday yengilmas kuch manbai esa, avvalo, insoniyat tafakkurining buyuk kashfiyoti — kitob va kutubxonalarda", dedi davlatimiz rahbari. Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'an esa: "O'zbekiston biz uchun madaniy tasavvurimizni shakllantirgan, olimlarni yetishtirgan, ilm, urfon va ma'naviy dunyomizni ta'minlagan hayotiy manbalarimizdan eng muhimidir. Ilm muhiti asrlar davomida Toshkent bilan Anqara, Samarqand bilan Konya, Buxoro bilan Bursa, Xiva bilan Edirneni bog'lab, o'zaro boyitgandir. Bu kun Xalq kutubxonasini Janobi oliylari bilan birgalikda ochib, mushtarak madaniyatimiz haqida butun dunyoga muhim bir ishora bermoqdamiz", deya O'zbekistonga chuqur hurmatini izhor qildi. Shundan so'ng kutubxona ochish istagi tug'ilgan.

Og'izda aytish oson deganlaridek, gap boshqayu ish boshqa. Maqsad bo'lgani bilan u osongina amalga oshib qolmaydi axir. Qobiljon Obidov bunday dedi:

— Kutubxonamiz tuman markazidan uncha uzoq bo'lmagan Alitepa ko'chasida joylashgan, kitobxonlarga qulay. Tuman, viloyat miqyosidagi ko'plab tadbirlar, "Yosh kitobxon" tanlovlari kutubxonamizda o'tadi. Yangi nashrlarni topishimiz va o'quvchilarga taqdim etishimizda adabiyotshunos Shuhrat Rizayev hamda Olimjon Davlatov bizga yaqindan ko'makchi. Har bitta kitobni bafurja ko'rib chiqib tavsiya qiladi.



Qobiljon akaning kutubxonasida kitoblar uyga berilmaydi. Biroq kitob yo'qolishi holatlari bu yerda ham uchrab turadi.

— Bundan xafa bo'lmaymiz. Aksincha, o'g'irlagan bo'lsa-da, yaxshi niyatga xizmat qilayotgani uchun xursand bo'laman. Lekin o'zi bir dona bo'lgan kitob o'g'irlansa, achinib ketaman, — deydi qahramonimiz.

Bugun shu kutubxonada 4 kishining bandligi ta'minlangan. Bu yerda jahon adabiyoti durdonalari, atoqli o'zbek yozuvchilari, shoir va olimlarining ko'plab asarlari kitobxon ko'zini quvnatadi. "Qani endi hammasini bir paytda o'qib bo'lsa", deysan. Shu ma'noda, marhamatlik yosh kitobxonlarga, qolaversa, adabiyotga ishtiyoqmand katta avlod vakillariga havas qiladi kishi.

Qobiljon aka davlatimizning nufuzli mukofotlari bilan taqdirlangan, biroq eng yuksak mukofot — xalqning duosi. Yurtning ertasi, yorug' kelajakka tamal toshi qo'yayotgan va xayrli amallari bilan barchaga ibrat bo'layotgan yurtdoshlarimizni har tomonlama qo'llab-quvvatlasak arziydi.



Oltin avlod

**Guliston PARDABOYEVA,**
*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti talabasi*

# MUVAFFAQIYAT FORMULASI

Qilichni ilk bor ushlab ko'rganimda "Bu sport turi — meniki!" deganman. O'shanda zalga singlimni olib borardim. Murabbiy Sardor Nazarimbetovdan bir oz ikkilanish bilan "Men ham qilichni ushlab ko'rsam bo'ladimi?" deb so'raganman. O'shanda 13 yoshli o'smir qiz edim. Bu sport haqida avval unchalik bilmaganman, faqat televizorda ko'rganman.

Olti yildan buyon qilichbozlik sir-asrorlarini o'rganaman. Raqiblarim bir-biridan farq qiladi. Uslublari ham har xil. Bellashuv paytida ularning zaif tomonini ilg'ab olishga intilaman, bahslarini diqqat bilan kuzataman va murabbiyim Martin Kamajiyev saboqlaridan xulosa chiqarishga harakat qilaman. Bir oz muddat shamshir bo'yicha mashhur ustoz Vladimir Nazlimovdan saboq oldim. Ayni paytda esa italiyalik taniqli murabbiy Diji Tarantino bilan ishlayapman.

Dastlabki muvaffaqiyatni 2022-yilda qo'lga kiritgandim. Toshkentda bo'lib o'tgan Osiyo chempionatida yoshlar o'rtasidagi yakkalik bellashuvlarida chempion bo'ldim. O'shanda omadim kelgan, o'smirlar va yoshlar o'rtasidagi jamoaviy musobaqalarda ham bittadan oltin va kumush medalga sazovor bo'lgandim.

Har safar shohsupaga ko'tarilganimda, mustaqil O'zbekistonimiz nomi yangraganda ta'riflab bo'lmaydigan ajib bir hissiyot chulg'ab oladi meni.

Qayerda bo'lsam ham yurtimni bir daqiqaga esimdan chiqarmayman. Ota-onam, oilam bag'riga talpinaman. Do'stlarim, ovuldoshlarim bilan diydor ko'rishishni istayman. Ular mendan qanday qilib chempion bo'lish mumkinligini so'raydi. Buning formulasi oddiy. Ko'nglingga yoqqan ishni tanlab ol va erinmasdan shuni o'rganaver, deyman.

Yana bir quvonchli voqea — "Qoraqalpoqfilm" kinostudiyasi sportdagi faoliyatim asosida "Qilich parvozi" filmini suratga oldi. Sportda erishayotgan muvaffaqiyatlarim tengdoshlarimga ibrat bo'ladi, degan umiddaman.

Gohida "hali 17 yoshli qizcha bo'lsam, Vatanim uchun nimalar qildim?" deb o'ylardim. Xitoy, Italiya, Moskva, BAA, Bolgariya, Germaniya singari ko'plab davlatlarda oltin, kumush va bronza medallarni qo'lga kiritib, O'zbekiston yoshlari nimalarga qodir ekanini namoyon etganimdan baxtiyorman.

O'tgan yil yakuni bo'yicha menga "Yilning eng yaxshi yosh sportchisi" nominatsiyasi berildi. Bu e'tirof katta mas'uliyat yuklaydi. Yanada katta yutuqlarni qo'lga kiritishga rag'bat uyg'otadi.

Yangi yil barchamizga qutlug' kelsin. Orolimiz suvga to'lsin. Osmonimiz doimo musaffo bo'lsin!

*Luqmon BO'RIXON*

# O'TIRIK

*Hikoya*

Muyulishdan chiqib kelgan oppoq "Lacetti" qassobxona biqinida jonsarak turgan, olacha chopon, ko'k sallali, jikkak jussa qariya yonida to'xtadi.

— Yo'l bo'lsin, otaxon? — deb so'radi old o'rindiqda o'tirgan xumkalla, qoshqovog'i soliq, qop-qora odam.

Qariya sersavlat ulovga hurkinkirab yaqinlashdi.

— Jalpoqtoshga.

— O'tiring, Chalpaktepagacha yetib olasiz.

— Ma'qul, ulim, baraka toping, — dedi qariya mashina orqa eshigiga qo'l cho'zarkan, — nariyog'i yaqin, bir amallarman.

— Tezroq qimirlang, buva, — deb qo'ydi haydovchi norizo ohangda.

Orqa o'rindiqqa yastanib olgan quyuq sochlari orasta, silliq kishi ilkis surilib, qariyaga joy bergan bo'ldi.

— Keling, otaginam.

Qariya joylasha-joylasha mashinadagi har uch kishi ham kulrang "komuflyajka" kiyimda ekanini payqadi.

"Askarlarmi deyman", xayolidan o'tdi uning.

— Ota, tortinmang, — dedi orqa o'rindiqdagi hamroh uzun-qisqa salom-alikdan so'ng, — Chalpaktepagacha, e-he-ye, yana qirq kilometr, yo'l nobop, qulay joylashib o'tiring.

— Rahmat, ulim, rahmat.

Tuman markazi, gavjum ko'chalar, serhasham uylar hash-pash deguncha ortda qoldi. "Lacetti" dala-dasht yo'liga chiqib oldi. O'ngu so'lda ekin maydonlari, ariq-zovurlar, yakkam-dukkam uylar ko'zga tashlanadi.

— Haligi yerda nima qilib turgandingiz, buva? — deb so'radi haydovchi peshoynadan qariyaga ko'z tashlab.

— Ulashningma, Jobirningma "Damas"i kep qolarmikan deb kutib turgandim. Shu ikkovi Jalpoqtoshdan qatnaydi-da.

— Markazga nega kelgandingiz? Bozorga tushdingizmi? — yana so'radi haydovchi.

— E-e, bozor qayoqda, bolam, — deb qariya siyrak soqolini o'ychan silab qo'ydi, — sa-al tashvish bilan hokimlikka kelgandim.

Uning yonidagi hamroh cholga ajablanib ko'z tashladi.

— Hokimlikka deysizmi?

— Ha, hokim qabuliga kelgandim. Bizning Jalpoqtosh tap-taqir dasht. Ovulimizga, hechqursa, bitta quduq kerak. Qo'ni-qo'shni meni iltimos bilan jo'natdi. Hokimga uchrashib, arzimizni yetkazing, deyishdi. Shuytib markazga kelib edim.

— Hokimga uchrashdingizmi? — yana so'radi yon hamroh.

— Ha, — o'ychan bosh irg'adi qariya, — kirdim, ko'rdim.

— Qanday odam ekan hokim?

— Oppoq, kelishgan, bo'yinbog'li odam ekan.

Yon hamroh pixillab kulib yubordi. Haydovchi ham iljaygan ko'yi peshoynadan qarab qo'ydi.

— Ey, — deb po'ng'illadi old o'rindiqdagi xumkalla, — g'iybat qilishga hokimdan boshqa odam qurib qolganmi sanlarga.

Qariya, bular so'zlarimga ishonmadi, degan xayolda shosha-pisha aytganlarini isbotlashga kirishdi.

— Chin, yaxshi odam ekan. Meni kulib kutib oldi, choy quyib berdi.

— Hatto choy ham quyib berdimi? — yon hamroh qariyaga xuddi hayratlangandek tikildi.

— Ha. Bo'sag'agacha kuzatib ham qo'ydi.

— Arzingizni tingladimi?

— Ha, hal qilib beramiz, deb aytdi.

— Sizni aldab-suldab chiqarib yuborgan, — dedi yon hamroh bosh chayqab, — u iltimosingizni bajarmaydi.

— Nega bajarmaydi? — ajablanib unga tikildi qariya, — ana, Prezidentimiz xalqqa qayish, yordam ber, deb har kuni aytib turibdi-ku. Poshshoning ishongan vakili bo'lgandan keyin bajaradi-da.

— Siz hokim Prezidentning ishongan vakili deb o'ylaysizmi?

— Ha-da, ishonganidan unga amal bergan-da. Birov bir nimani ishonib topshirgandan keyin bajarish kerak, esam, lafzsizlik bo'ladi, ulim. Bu katta gunoh.

— Demak, — yana zavq bilan kuldi yon hamroh, — siz ham hamqishloqlarning ishonchini qozonib, ishni do'ndirib qaytyapsiz-da.

Qariya kaftlari bilan yuzini silagan bo'lib ko'zini yashirdi.

— Ha, endi... qo'ldan kelganicha...

Mashina sap-sariq, tap-taqir dasht qo'ynida uzalib ketgan, egri-bugri, past-baland yo'l bo'ylab ohista yelib borardi. Ur-kaltakdan shishib ketgan badanday qir-tepaliklar birin-ketin ortda qola boshladi.

— Uzr, ulim, — dedi yon hamrohiga yuzlanib qariya, — sizlarga yo'l bo'lsin? Cho'ponlarning otariga borasizlarma?

Yon hamroh uzun bir homuza tortib olgach:

— Sho'rsoyda ishlayotgan geologlarni ko'rganmisiz? — dedi.

— Anovi burovoychilarni aytyapsizmi? Yer kovlagichlarni? Ha, ko'rganman.

— Men o'shalarning boshlig'i bo'laman. Ishga ketyapman.

Qariya beixtiyor uning qo'lidan ushladi.

— Sizni menga Xudo yetkazdi, ulim. Xuddi siz kerak edingiz menga?

— Iya, nega?! Tinchlikmi? — dedi yon hamroh chinakamiga ajablanib.

Haydovchi ham peshoynadan qiziqsinib qarab qo'ydi.

— Ha, siz kerak edingiz, — dedi qariya quvonchdan ko'zlari porlab.

— Xizmat bormi?

— Ha. Bizning qishloqqa quduq kovlatib bering, iltimos.

— Iya, gapingiz qiziq bo'ldi-yu, hozirgina idoraga kirib chiqdim, hokim muammoni hal qilib beradi, deb aytdingiz-ku?!

Qariya xuddi ichi og'riyotganday yuzlarini burishtirdi.

— Tuvrasini aytaymi sizga?

— Tuvrasini ayting.

— Boya, — dedi qariya ming bir xijolat ichida, — sal-pal o'tirik surgandim.

— O'tirik?! O'tirik surgandim? Nima deganingiz bu?

— Yolg'on gapirgandim, demoqchilar, — izoh bergan bo'ldi haydovchi.

Yon hamroh iljaydi.

— Ha-a, shunaqami hali.... ja-a quv ko'rinasiz-a, otaxon?

— Shunday bo'p qoldi-da, ulim. Gapning tuvrasi, hokimlikning imoratini ko'rgan paytim tizzam qaltirab ketdi. Axir bu yerda chakana odamlar o'tirmaydi-da, tuvrama?

— Tuvra.

— Shuytib, ana keyin... o'yladim, hokim davlatning odami, zaril-zaril ishlari ko'p, bizdaychakinlar bilan shug'ullanishga vaqtiyam, hafsalasi ham yo'q, mayda-chuyda iltimos bilan u kishining boshini qotirmaylik deb... ana keyin... eshikning oldida turib-turib izimga qaytdim.

— Iya, g'alati-yu, otaxon, hamqishloqlarning iltimosi nima bo'ldi, hali o'zingiz aytganday, ishonch masalasi nima bo'ldi?

— Gapni oxirigacha eshiting, ulim... ana keyin... qishloqqa borib, hokimga uchrashdim, shanba kuni kel, mablag' beraman, shu pulga quduq qazdirib olasizlar, deb aytdi deyman.

— Nega aynan shanba kuni? — so'radi yon hamroh tobora qiziqishi ortib.

— Ana keyin... shanba kuni besh-olti qo'y haydab bozorga tushaman, sotaman, pulini ovulga olib boraman, mana, hokim so'zida turdi, mablag' berib yubordi, deyman, burovoychilar bilan gaplashib, shu pulga quduq kovlatamiz, deb maslahat solaman.

Peshoynadan qarab-qarab qo'yayotgan haydovchi taajjublanib so'radi:

— O'zingizning hisobingizdan quduq kovlatmoqchimisiz?

— Ha, endi-i, ulim, mol ketsa, ketar, lekin odamlarning ishonchi o'lmasin, uydan shu ishni bo'yinga olib chiqqanman, o'rtada lafz bor, xarajat qilaman-da. Boshlanishiga shu pul yetar, qolganiga ham Xudo poshshadir.

— Xarajatni siz qilasiz, yugur-yugur ham sizning bo'yningizda, izzat-obro' hokimga ekan-da, — dedi yon hamroh qariyaga sinovchan ko'z tashlab.

— Ha, endi-i, — deb jilmaydi qariya, — u kishi ham shu el uchun kuyib-pishib yuribdi, qayishganimiz ma'qul-da.

— Siz ja-a g'alati fikrlar ekansiz, otaxon.

— Ulim, — qariya yana yon hamrohning qo'lini kaftiga oldi, — iltimos, yordam bering, xarajatga tayyorman, aytganingizni beraman, yuzimni yorug' qiling.

Yon hamroh yayrab kuldi.

— Otaxon, sizning yuzingiz hamisha yorug'. Siz o'tirik surganingiz yo'q. Siz chindan ham hokimga uchrashdingiz, iltimosni yetkazdingiz.

— Yo'g'-a, qaytib?

— Ana, — yon hamroh old o'rindiqda o'tirib, go'yo dala-dashtni kuzatib ketayotgan xumkalla, qop-qora kishiga ishora qildi, — siz aytgan oppoq, kelishgan hokim shu yerda...

Haydovchi baralla kulib yubordi.

Hokim ham miyig'ida iljayib ortga o'girildi.

— Nega kulasanlar? Otaxon o'tirik surmaydi, ko'ngli oppoq, niyati toza odamlar bular, shuning uchun ko'zlariga hamma oppoq, kelishgan ko'rinadi.

Mashina saloni yana qah-qahalardan larzaga keldi.

— Ey, sen, maynavozchi, — dedi hokim haydovchiga yuzlanib, — tuvra Jalpoqtoshga hayda. Otaxon hokimni ham, quduq kovlovchini ham oldiga solib kelganini hamma ko'rsin.

— Xo'p.

Oppoq, kelishgan mashina tap-taqir adirlar qo'yniga oppoq, kelishgan xayolday singib ketdi.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalari tahririyati" DM

MUASSIS:
**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi**

Bosh muharrir:
**Salim DONIYOROV**

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Kolorpak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
**Nashr indeksi** — 236. Buyurtma — 11.
8843 nusxada bosildi.
**Hajmi** — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

"Kolorpak" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Nodir Mahmudov
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

O'zA yakuni — 22:00 Topshirildi — 22:05